

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

O'ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

O'ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

**MAVZU: SO'Z VA UNING XUSUSIYATLARI
MALAKAVIY BITIRUV ISHI**

Bajardi: Alimova D.

Ilmiy rahbar: dots.Aliqulov Z.

Malakaviy bitiruv ishi o'zbek tilshunosligi kafedrasida bajarildi.

Kafedraning 2011–yil 20-maydagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi (bayonnomasi №___)

Kafedra mudiri:

prof.A.Abdusaidov

Malaviy bitiriv ishi YaDAKning 2011-yil ----- iyundagi majlisidahimoya qilindi va ----- foizga baholandi (bayonnoma № ____)

YaDAK raisi:

A'zolari:

SAMARQAND - 2011

Reja:

1. Kirish

2. I bob.

So'z va uning xususiyatlari. So'zlarni turkumlarga ajratishda yangicha qarashlar.

3. II bob.

So'z-gaplar. Oraliq so'z turkumlari.

4. Xulosa.

5. Adabiyotlar ro'yxati.

Mundarija

1. Kirish.....	3
2. I bob.	
So'z va uning xususiyatlari. So'zlarni turkumlarga ajratishda yangicha qarashlar.....	12
3. II bob.	
So'z-gaplar. Oraliq so'z turkumlari.....	25
4. Xulosa.....	51
5. Adabiyotlar ro'yxati.....	54

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti filologiya fakulteti
405-guruh talabasi Qodirova Mohiraning “O‘zbek tilida so‘z-gaplarning
lingvistik talqini (Zamonaviy materiallar misolida)” mavzudagi bitiruv ishi
haqida ilmiy rahbarning

M U L O H A Z A S I

Ma'lumki, tilshunoslik so'zni tasnif etish, lug'at tarkibidagi so'zlarni turkumlarga ajratish uzoq davrlardan buyon o'rganib kelinganligiga qaramasdan hozirga qadar o'z yechimini topganligi barchamizga ayondir. Mavjud so'zlarni turkumlariga ajratishda an'anaviy usullarda ya'ni so'zlarni mustaqil, yordamchi guruhlarga ajratilar edi.

Talaba Qodirova Mohira so'zlarni turkumlarga ajratishda an'anaviy uslublardan foydalangan holda zamonaviy tilshunoslik nuqtai nazardan so'zlarni manoviy sintaksik va morfologik tasnif asosida tahlil etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi. Talaba Qodirova Mohira bitiruv ishiga oid ilmiy adabiyotlar vailmiy maqolalar bilan tanishib chiqqan holda so'z-gaplar deb yuritmasdan ularni morfologik nuqtai nazardan oraliq so'z turkumlari deb etirof etadi va buni faktik materiallar asosida isbotlab berishga harakat qildi. Ishning nazariy va amaliy ahamiyati shundaki, mavjud darsliklardagi turlicha qarashlarni yaxlit bir sistema asosida tasnif etilishini taklif etadi.

Zero, Qodirova Mohira to'g'ri ta'kidlaganidek so'z-gaplar qatoriga kiritilgan taqlid so'zlar, modal so'zlar va undovlarni nutq jarayonida mustaqillik va yordamchilik xususiyatlariga ega bo'lganligi tufayli ularni oraliq so'z turkumlari degan fikrga qo'shilganligini alohida ko'rsatish lozim. Shu o'rinda zamonaviy o'zbek tilshunosligida taqlid so'zlarni mustaqil so'z turkumi deb e'tirof etilganligini inkor qilgan holda ularning mustaqil so'z turkumiga daxildor emasligini misollar asosida isbotlashga harakat qilgan. Xulosa qilib aytganda, Qodirova Mohira berilgan vazifani o'z vaqtida, sitqi dildan bajarib berilgan mavzuni, ilmiy asosda mustaqil ravishda bajardi.

Mavzuning murakkabligi va dolzarbligi inobatga olinadigan bo'lsa kelgusida bu sohada talaba katta yutuqlarga erishishga shubha yo'q, ish mustaqil ravishda bajarilgan, uni himoya qilish YaDAKga tavsiya etish mumkun deb hisoblayman.

Ilmiy rahbar

dots.Z.Aliqulov

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” yosh avlodning mustaqil fikrlash va ijodiy tafakkur ko’nikmalariga ega bo’lishini ta’lab qiladi. Bunday ko’nikma va malakalarni shakllantirishning asosiy vositalaridan biri esa tarbiyalanuvchilarga o’zbek tili imkoniyatlari xazinasini ochish, undan ijodiy va unimli foydalanish ko’nikmalarini shakllantirish asosiy vazifalaridan biridir.

Umuman olganda til haqidagi fanning shakllanishi, odatda, XIX asrning boshiga to’g’ri kelib, tilshunoslikning eng asosiy, tub muammosi, jumladan so’z turkumi va gap bo’lagi, tilning tabiati, til belgisining ma’noda aloqadorligi, mantiqiy, gramatik va boshqa hodisa munosabati va hatto, til, lison va nutq munosabati, tilning sistemaviy xarakteri, sistema ekanligi, yaxlit strukturadan iborat ekanligi kichik sistemaning katta sistema tarkibiga kirishi, ular o’rtasida juda zich aloqa mavjudligi, bu aloqasiz, strukrurasiz yaxlitlikning, yani tilning o’zi bo’lmasligi hamda unga yondashuvda ham doimo qadimdan boshlab sistema sifatida yo’l tutilganligi, shuningdek, tilning kelib chiqishi qamrab olinadigan bo’lsa, tilshunoslik fanining shakllanishi uzoq tarixga borib taqaladi. O’z davrida Mahmud Qoshqariy ham yunon va arab tilshunosligi an’anasiga ko’ra so’zlarni uch guruhga ajratadi:

- a) ism;
- b) fe’l;
- c) yordamchi so’zlar.

Alisher Navoiy turk tilining shuhratini olamga yoyish bilan birga, umuman tilshunoslikning eng muhim masalasiga nisbatan o’z fikrini ham aytib o’tgan, o’z munosabatini bildiradigan. Alisher Navoiyning marfologik qarashi uning quyidagi fikrlarida, talqinida o’z ifodasini topgan: so’zni uch turkumga ajratadi: fe’l, ism va yordamchi.¹

¹ Замонавий ўзбек тили. Морфология.- Тошкент: Мумтоз сўз, 2008, 33-бет.

Soʻz doimo tilshunoslarning diqqat markazida boʻlib kelgan, Fitratning soʻzga jiddiy eʼtibor berilganligi, ayniqsa, soʻzga ham, avvalo, maʼno anglatish nuqtai nazaridan yondoshganligi, birinchi oʻringa mazmunni qoʻyganligi, yaʼni maʼnodan shaklga qarab borganligi muhim. Olim, avvalo, soʻzga taʼrif beradi: “Soʻzga bir maʼnoni bildirgan tovush toʻdasi”, oʻziga xos maxsus ohangi va bosimi boʻlgan tovush toʻdasi “,-degan fikr bildiradi.²

Tabiiyki, soʻz fikr bayon qilishda eng asosiy vazifani bajaradi; fikrni gap ifoda qiladi, gap esa soʻzdan tuziladi. Gap bilan soʻz bir-biri bilan zich bogʻlangan buning orasida dilektik qonuniyat mavjuddir. Har bir soʻzning ikki tamoni mavjud boʻlib, bu uning ichki va tashqi tamonidir. Buning birinchisi – soʻzning maʼnosi, ikkinchisi esa tovush tamonidir.

Har bir soʻz shu ikki tamonning birligidan iborat. Demak, soʻz – nutqning mastaqil boʻlagi, u maʼno va shakllanish jihatidan bir butunlikka ega. Soʻz sistematik va gramatik butunlikdan iborat... Soʻz leksikologiyaning ham, grammatikaning ham obʼyektidir. Oʻz navbatida leksikologiya soʻzning maʼnosi, bu maʼnoning taraqqiy etish yoʻlini, grammatika esa soʻzning strukturasi, tarkibini, morfemasini, soʻzning turkumga boʻlinishini tekshiradi. Bular bir-birlari bilan uzviy bogʻliqdir.

Soʻz nutqning eng asosiy boʻlaklaridandir, chunki insonlarning oʻzaro aloqa-aralashuvida, fikrlashuvida eng muhim vazifani gap va soʻz bajaradi. Demak, soʻz fikr bayon qilishda eng asosiy vazifani bajaradi: fikrni gap ifoda qiladi, gap esa, soʻzlardan tuziladi: “Til –kishi aloqasini eng muhim vositasi”. Tilning asosiy materiali soʻz boʻlib, u turli maʼnolarni ifodalashga xizmat qiladi. Soʻz orqali turmushning turli tomonlari, kishilik jamiyatining, insonning turmush tajribalari aks ettiriladi. Soʻz predmet, harakat, holat kabi maʼnolarni, his tuygʻularni bildiradi.³

² Юкоридаги манба. 35-бет.

³ Ҳозирги замон ўзбек тили. – Тошкент: Фан, 1957, 285-286-бетлар.

So'zlar ma'nosiga va grammatik xususiyatlariga – morfologik xususiyatlariga va sintaktik rolga qarab bir qancha to'dalarga bo'linadi. So'zlarning bu to'dalari so'z turkumlari sanaladi.

So'zning semantik belgisi uning predmet, belgi, harakat kabi ma'nolarni ifodalashidir: ot predmetni bildiradi va fe'l esa harakat va holatni bildiradi va boshqalar. So'zning sintaktik belgisi uni gapda bajaradigan vazifasidir.

Har bir so'z semantik va grammatik xususiyatlari bilan gapning ma'lum bir bo'lagi vazifasida kelishga mos bo'ladi; har bir bo'lak uchun tipik so'zlar – semantik va grammatik xususiyati bilan shu bo'lakka juda mos keladigan so'zlar bor. Masalan, kesim uchun tipik so'z – fe'l, aniqllovchi uchun tipik so'z – sifat. So'z nutqda o'ziga tipik bo'lmagan holda qo'llanilishi ham mumkin. Bu hodisa o'sha so'zning turkum vazifasida qo'llanilishidir.⁴

“Hozirgi zamon o'zbek tili” (1957) kitobida so'zlar ... mustaqil so'zlar, yordamchi so'zlar, modal so'zlar, undov va mimemallar.

Mustaqil so'zlar: o'z ayrim ma'nosiga ega (predmet, belgi, miqdor, harakat kabi ma'nolarni bildiradi): o'z ayrim urg'usiga ega: yasalish, turlanish, tuslanish kabi morfologik xususiyatlariga ega: gapning biror bo'lagi vazifasida qollaniladi, ayrim o'rinlarda uning bir o'zi bir gapni hosil qiladi.

Yordamchi so'zlar yakka holda ma'no bermaydi, nutq chidagina bilinadi: ular odatda o'z ayrim urg'usiga ega bo'lmaydi: morfologik so'zlarning munosabatini ko'rsatadi, yoki so'z (mustaqil so'z) va gaplarning ma'nosiga bir oz boshqacha tus – ottenka berish uchun xizmat qiladi. Yordamchi so'zlar mustaqil so'zlardan tug'ilgan.

So'zlovchining aytilayotgan fikriga, voqelikka munosabatini bildiradigan, balki, albatta kabi so'zlar modal so'zlar deyiladi.

Ushbu darslikka modal so'zlar, undov va mimemallar na mustaqil na yordamchi so'z turkumlariga kiritilmasdan, alohida so'z turkumi sifatida berilgan.

⁴ Hozirgi zamon ўzbek tili.- Toshkent: Fan, 1957, 303-bet.

Modal so'zlar so'z – gap tarzida emas, balki so'z sifatida talqin etilganligini ko'ramiz.

Mustaqillik davridan buyon so'z-gap shaklida berilayotgan modal so'zlar, undov va taqlidiy so'zlar mavjud darsliklarda turlicha talqin etilganini kuzatish mumkin. ...Demak, so'zlarning gapda qanday gap bo'lagi bo'lib kelishi yoki gap bo'lagi bo'la olmasligi, qanday so'zlar bilan aloqaga kira olishi uning ma'nolarga va grammatik formalariga bog'liq bo'lgan hodisadir. Shuning uchun so'zlar uch belgini, semantik, morfologik va sintaktik belgilarni nazarda tutgan holda turkumlarga ajratiladi. Bu belgilar hamma so'z turkumlarida bir xil darajada mavjud emas, albatta. ...Yordamchi so'zlarga ko'makchi, bog'lovchi, yuklama va modal so'zlar kiradi.

Undoshlar va taqlid so'zlar kishining his-tuyg'usi, istagining, tovush va harakatining atamasi bo'lmasa ham, uning bevosita ifodasi yoki obrazi bo'lgan so'zlardir. Bu guruppa mustaqil so'zlar bilan yordamchi so'zlar orasida turuvchi va bir-biridan farq qiluvchi ikki xil so'zni: a) undov, b) taqlid so'zlarni o'z ichiga oladi.

Undovlar va taqlid so'zlar gap bo'lagi sifatida ham, mustaqil so'z-gap sifatida ham qo'llaniladi.

Shu bilan birga, undovlar yuklama bajaradigan vazifada ham kelishi ifodalanib, gap bo'lagi bo'la olishi jihatidan undovlar va taqlid so'zlar mustaqil so'zlarga o'xshamaydi, ammo biror hodisaning atamasi bo'la olmaslik, yuklama bajara oladigan vazifada qo'llanilishi jihatidan esa yordamchi so'zlarga o'xshaydi.⁵

Boshqa sohalarda bo'lgani kabi hozirgi kunda so'z turkumlari bo'yicha yangicha qarashlarga sodir bo'layotganligini ko'rishimiz mumkin.

... Hozirgi kunda taqlid mustaqil so'z turkumi doirasida qaralmoqda. O'zbek tilining ichki tabiati hodisasi shunday baholanishini taqozo etadi. Zero, o'zbek

⁵ Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили.- Тошкент: Ўқитувчи, 1978, __-бет.

tilshunosligida 60- yillardayoq tasviriy soʻz (harakat-holatga taqlid soʻz) va taqlidiy (tovushga taqlid soʻz) alohida soʻz turkumi sifatida ajratilgan.

Umuman, bu davrga kelib soʻzni mustaqil soʻz turkumi, yordamchi soʻz turkumi va alohida soʻz turkumi (mustaqil soʻz turkumi doirasiga ham, yordamchi soʻz toʻdasiga kirmaydigan alohida bir toʻdani tashkil etuvchi soʻz) tarzida tasniflash amalga oshirildi. Bu talqin XX asr boshlarida ham oʻz qimmatini yoʻqotgan emas. Bunda taqlidga munosabat ham oʻziga xos. Bugungi kunda taqlidning mustaqil soʻzlik hususiyatini jiddiy ilmiy asoslash lozim. Taqliddan ot va feʼl kabi soʻzning yangi bir qismini yasash mumkin. Shuningdek, u baʼzan otlashganda, baʼzan otlashmay turib ham gap boʻlagi vazifasida kela oladi. Biroq anashuning oʻzigina uni mustaqil soʻzlar qatoriga qoʻllash uchun hali etarli emasga oʻxshaydi. Albatta, taqlidning ot oʻrnida qoʻllanilishi boshqa hodisa-yu, mustaqil tushuncha ifodalash yoki mustaqil tushunchaga ishora berish boshqa hodisa, taqlidda bu xususiyat juda mavhum va gʻayritabiiy. Bu jihatdan u olmoshga oʻxshaydi. Jumladan, u olmoshidan, umuman olganda, mavhum shaxs yoki narsa tushunchasi seziladi, iltang-biltang yoki taq-taq soʻzida ham shunday holat kuzatiladi. Shunga qaramay, bu holat qanday baholanmasin, har holda oʻzbek tilida alohida taqlid mavjud ekanligi u undoshdan farq qiladigan soʻz sifatida ajralishi mumkin. Demak, taqlid alohida soʻz turkumi.

Xuddi shu kabi undov ham, modal soʻz ham oʻziga xos xususiyatga ega. Nutqda turli xil vazifada qoʻllanilishi mumkin. Modal soʻz munosabat bildiruvchi kirish soʻz vazifasida hamda gap boʻlib kelishi mumkin: undov soʻz ham munosabat bildiruvchi his-hayojonni ifodalovchi gap, soʻz-gap boʻlib kelishi mumkin. Bu bugungi kunda modal, undov va taqlid soʻzlarni yahlit holda soʻz-gap deyilishiga asos boʻladi.

Xulosa qilib shuni taʼkidlash lozimki, tilshunoslikning eng dolzarb, mavzularidan biri boʻlgan til birligining imkoniyatini belgilash va bu imkoniyatning nutqda namoyon boʻlishini ochib berish masalasiga jiddiy eʼtibor qaratishni taqozo etadi.

Istiqlol barcha fan sohasi bo'yicha jiddiy tadqiqot olib borishga keng yo'l ochdi. O'zbek tilshunosligini Evropa, ayniqsa, rus tilshunosligi andozasi ta'siridan xalos etdi. Natijada o'zbek tilshunosligi mustaqil tarzda, asosan, o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib til hodisasini mustaqil baholash yo'lini tanlagani natijasida tadqiqot ko'lami kengayganligi sababli oraliq so'z turkumlari, ya'ni so'z gaplar to'g'risida turlicha qarashlar ilgari surilmoqda. Ularning mavqiyi o'zining fundamental tadqiqotini kutayotganligi yuqoridagilardan sezilib turibdi.

Modal so'zlarni so'z-gap deyishga asos bo'ladigan hodisa shuningdek, ular ot, sifat, ravish, fe'l kabi mustaqil so'z turkumlariga, shuningdek yordamchi so'zlarga ham o'xshab ketadi.

Shunga qaramay, modal so'zlar mustaqil so'z turkumlariga ham kiritilmaydi, yordamchi so'z ham sanalmaydi. Modal so'zlar o'z mohiyatiga ko'ra so'z tiplarining alohida bir guruhini tashkil etadi. Nomunativlik vazifasi modal so'zlarga xos emas. Gap bo'lagi bo'la olmaydi. Ma'no va vazifasi jihatdan modal so'zlar bilan yordamchi so'zlar o'rtasida katta farq bor. Modal so'zlardan nisbatan mustaqillik mavjud bo'ladi.

Modal so'zlar shakl jihatdan o'zgarmasligi bilan xarakterlanib, ular odatda butun gapga taalluqli bo'ladi va asosan kirish so'z bo'lib keladi. Shuning bilan birga modal so'zlar gapning biror bo'lagini ajratib ko'rsatish vazifasini ham o'taydi. Modal so'zning matndagi o'rni ko'pincha uning shu vazifasiga bog'liq bo'ladi.

Umuman olganda, modallikning morfologik va sintaktik ifodalanish usullari grammatik mavhumlikka asoslangan bo'lsa, modal so'zlar bilan ifodalanishi leksik ma'noga tayanadi.

O'z navbatida undov so'zlar ham xuddi modal so'zlar kabi qo'shimchalar olib o'zgarmaydi. Ayrim undov so'zlar otlashganda, ya'ni ot vazifasida qo'llanganda egalik qo'shimchasini oladi.

Undovlar so'zlovchining his-hayajoni, buyruq va istagini, ta'kid va javobini ifodalaydigan yoki predmetlarning o'rin va vaqtga munosabatini ematsional o'ttenka bilan ko'rsatish uchun xizmat qiladigan grammatik kategoriyadir.

Undov ayrim so'z sifatida ma'lum bir predmet yoki uning belgisini ifodalamaydi, balki u his-hayojon kabi inson tuyg'usining so'zlarga bevosita gavdalanishidir. Undovning ma'nosi ma'lum bir o'rin, vaqt va sharoitda aniqlanadi. Bu jihatdan undovlar boshqa so'z turkumlaridan ajralib turadi.

Undovlar mustaqil ma'noli so'zlar bilan yordamchi so'zlar orasidagi bir kategoriya bo'lib, ularda leksik ma'no grammatik ma'no bilan dialektik birlikni tashkil qiladi. Undov ko'pincha nutqda modal ma'noni ifodalash uchun xizmat qiladi.⁶

Taqlid so'zlar leksik va formal xususiyatlariga ko'ra alohida mustaqil gruppani tashkil qiladi. Bu gruppaga kiruvchi so'zlar his-hayajon, tuyg'u yoki buyruq-xitobni ifodalamaydi. Ular atrofdagi o'rab turgan muhitda (odam, hayvon, qush, jonsiz predmetlarda) uchraydigan ovoz (tovush)larni qayta tiklab, tovush obrazi sifatida, predmetlar harakati tasvirini esa harakat obrazi sifatida ifodalaydi. Taqlid so'zlar gapda, asosan hol va aniqlovchi bo'lib kela olishi sababli keyingi paytlarda ularni mustaqil so'z turkumiga ham qo'shib kelayotganini ko'ramiz.

Ehtimol shuning uchun ularni shunga asoslanib so'z-gaplar qatoriga ham qo'shilishiga asos bo'la oladi deb hisoblamodalar.

Tadqiqot manbai. Tadqiqot manbai sifatida 1957-yilda F.Kamolov taxriri ostida nashr etilgan „Hozirgi zamon o'zbek tili“, 1975-yil nashr etilgan „O'zbek tili grammatikasi“, U.Tursunov, J.Muhtorov, Sh.Rahmatullayev tomonidan 1992-yil nashr etilgan „Zamonaviy o'zbek tili. Morfologiya“, R.Sayfullayeva va bosh. tomonidan 2009-yilda nashr etilgan „Hozirgi o'zbek adabiy tili“ darsliklari va shuningdek keyingi yillarda „O'zbek tili va adabiyoti“ jurnalida nashr etilgan ilmiy adabiyotlar asosiy manba hisoblanadi.

⁶ Хозирги замон ўзбек тили. – Тошкент: Фан, 1957. 510-бет

Bitiruv ishining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Tadqiqot Samarqand Davlat Universiteti o'zbek tilshunoslik kafedrası ilmiy mavzusining tarkibiy qismi bo'lib, o'zbek filologiya fakulteti va universitet ilmiy rejalariga kiritilgan.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi boshqa yondosh turkumlar tizimida so'z-gapning o'rnini belgilash hamda maskur turkumning lingvistik tabiatini muayyanlashtirishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish quyidagi vazifalarni hal qilish bilan bog'liq ravishda kechadi:

- So'z turkumlarini turkumlashtirish, tilshunoslikda so'z-gap tasnifiga asos bo'luvchi mezonlarga munosabat bildirish;
- So'z-gaplarning so'z turkumlari orasida turgan mavqeini belgilash;
- Mavjud adabiyotlarda modal so'zlarning gohida yordamchi, gohida yuklamalarga yaqin, turishi kabi mulohazalarga yondoshish;
- Zamonaviy tilshunoslikda so'z-gap deb yuritilayotgan modallar, undovlar, tasdiq-inkor so'zlar, taklif ishora so'zlarga munosabat bildirish;
- Yuqorida so'z-gap deb kiritilganlarni morfologiyada tasnif etish.

Himoyaga olib chiqayotga asosiy holatlar.

1. Zamonaviy tilshunoslikda taqlidiy so'zlarni mustaqil so'z turkumi sifatida talqin qilishiga e'tibor bildirib, ularning to'liq mustaqil so'z turkumlari sifatida qaralishi maqsadga muvofiq emasligini ko'rsatish;

2. Undov, modal so'zlar hamda taqlidiy so'zlarni oraliqdagi so'z turkumlari sifatida tasnif etish;

3. Modal so'z modallik va kirish so'zlarni nutq nuqtai nazardan farqlash;

4. Zamonaviy tilshunoslikda so'z-gaplarga kiritilayotgan oraliq so'z turkumlarini alohida tasnif etish.

5. Oraliq so'z turkumlari sifatida qaralayotgan modal so'zlar, undovlar va taqlidiy so'zlarning ham mustaqil ham yordamchilik xususiyatini ko'rsatish;

6. Nutq jarayonida yuklamalarning modallik xususiyatini anglatish modal so'zlarning yuklamali xususiyatini anglatishni ko'rsatish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Bitiruv ishida quyidagi ilmiy yangiliklar kiritishga harakat qildi:

1. O'zbek tilshunosligida so'z turkumlari va turkumlanish nazariyasiga yangicha munosabat bildirildi;
2. Mustaqil, yordamchi va oraliq so'z turkumlarini bir-biriga qiyoslash orqali ularning vazifaviy xususiyatlari ochib berildi;
3. Lug'at tarkibidagi so'zlarni zamonaviy tilshunoslik asosida ularni morfologik, ma'naviy va sintaktik aspektda qarab chiqishga harakat qilindi;
4. Ba'zi hollarda taqlidiy so'zlarning mustaqil ma'no anglashi nisbiy karakterda ekanligi ko'rsatildi.

Tadqiqotning metodologik asosi va tadqiqot usullari. Ishning metodologik asosini dealektik mantiq qonunlari tashkil etadi. Ishda umumiylik va hususiylik, analiz va sintez, qiyoslash, uzvli tahlil, qiyosiy tarixit tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijasining nazariy va amaliy ahamiyati. Kuzatish natijalari so'z turkumlari, ularni tasniflash me'zonlari, so'zning morfemik tarkibida bo'ladigan o'zgarishlar, so'z yasalishi, so'zning semantik tarkibi, so'zlarning bir guruhdan ikkinchi guruhga „o'tishi“ bo'yicha muayan ilmiy hamda amaliy materiallar bera oladi. To'plangan materiallardan oliy o'quv yurtlarining filologiya fakulteti talabalari uchun maxsus kurs o'tishda, darslik, qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkun. Maktab darsliklaridagi har xilliklarga barham beradi.

Tadqiqotning sinalishi va natijalarining omalashtirilishi. Tadqiqot Samarqand davlat universiteti o'zbek tilshunoslik kafedrasida ilmiy mavzuning tarkibiy qismi bo'lib, o'zbek filologiyasi fakulteti va universitet ilmiy rajalariga kiritilgan, muhokama qilinib, himoyaga tavsiya etilgan.

Natijalarning e'lon qilinishi. Ishning asosiy mazmuni bo'yicha universitetning o'zbek tilshunosligi kafedrasining talabalar konferentsiyasida aytib o'tilgan. Bu konferentsiyada shu mavzuda maqola chiqarilgan.

I BOB

SO'Z VA UNING XUSUSIYATLARI SO'ZLARNI TURKUMLARGA AJRATISHDA YANGICHA QARASHLAR

So'z-mavjudot, hodisa, tushuncha va ularning xossalarini anglatuvchi til elementi. So'zning tovush va ma'no tomoni bor. Har qanday so'z bir yoki bir necha tovushlardan iborat bo'lib, shu tovushlar tufayli moddiy tus oladi: talaffuz qilinadi va eshitiladi. Lekin har qanday tovush yig'indisi so'z bo'lavermaydi. Tovush yoki tovush birikmasi so'z bo'lishi uchun ma'noga ega bo'lishi, ya'ni bir til yoki sheva egalari shu tovushlar vositasida biror narsani bir-biriga anglatishi va anglashi shart. So'z odatda, ko'p ma'noli bo'ladi.

Tilda bir ma'noli so'z kam uchraydi. So'zning asl va ko'chma, lug'aviy terminologik va boshqa ma'nolari bo'lishi mumkun. Tovush so'zi (termini) tilshunoslikda bir artikulyatsiya bilan aytiladigan nutq bo'lganini bildiradi. Shu so'zning noterminologik ma'nolari esa (ovoz, shovqin va h.k.) uning lug'aviy ma'nosidir.

Tildagi ba'zi so'zlar tovush jihatidan bir xil bo'lishi mumkun: ot (ism), ot (tashla), ot (yilqi) singari. Bunday so'zlar ma'nodosh, mutarodif so'zlar yoki sinonimlar deb yuritiladi. Kun va tun, kulmoq va yig'lamoq kabi qarama-qarshi ma'noli so'zlarga zid so'zlar yoki antonimlar deyiladi.

So'zlar grammatik xususiyatlariga ko'ra biror turkumga mansub bo'ladi va nutqda o'z turkumiga xos formalarda ishlatiladi. Masalan, olma so'zi ot turkumiga mansub bo'lib birlik (olma) va ko'plik (olmalar) formalariga, kelishik (olma-bosh kelishik, olmaning-qaratqich kelishigi va boshqalar), egalik (olma – I shaxs, birlik, olmaning – II shaxs, birlik) formalariga ega. So'zdan nutqning fikr anglatadigan birligi gap – tuziladi.

So'z birikmalari sintaktik kategoriya bo'lib, nutq jarayonida ikki va undan ortiq mustaqil so'zlarning semantik-grammatik birikuvidan hosil bo'ladi. So'z birikmasi gap hosil qilish uchun xizmat qiladi, ammo fikriy–intanatsion tugallikka ega bo'lmasligi bilan gapdan farqlanadi.

Soʻz birikmasi ikki xil boʻladi: predikativ, nopredikativ. Soʻz birikmasi predikativ ega va kesmdan hosil boʻlib, gapni vujudga keltiradi; nopredikativ soʻz birikmasi esa ikkinchi darajali boʻlaklarning bosh boʻlaklardan biri bilan yoki oʻzaro birikuv yoʻli bilan hosil boʻladi.

Soʻz birikmasi erkin birikish xususiyati bilan turgʻun soʻz birikmalaridan farqlanadi. Soʻz birikmasida ikki xil – hokim va tobe elementlar mavjud. Tobe element hokim element maʼnosini turli tomondan aniqlaydi, izohlaydi, toʻldiradi va konkretlashtiradi.

Ushbu maʼnoda soʻz turkumlariga quyidagicha taʼrif berilgan. Soʻz turkumlari – tildagi soʻzlarning asosiy leksik-grammatik guruhlar. Soʻzlar maʼno va grammatik xususiyatlariga, soʻz yasash va grammatik shakl yasash tiplariga muvofiq shunday turkumlarga ajratiladi: odam, mehnat, osmon, kitob kabilar ot turkumini; qizil, koʻk, oq, uchqur va boshqalar, sifat turkumini; men, sen, u, hamma va b. olmosh turkumini; kel, ol, ishladi, oʻqiyman kabilar feʼl turkumini; hali, yozda, necha va b. ravish turkumini tashkil qiladi va hokozo. Oʻzbek tilidagi soʻzlar 11 ta turkumga boʻlinadi. Soʻz turkumi dastlab ikki turga boʻlinadi:

- 1) mustaqil soʻzlar;
- 2) yordamchi soʻzlar.

Mustaqil soʻzlarga ot, sifat, son, olmosh, feʼl, ravish; yordamchi soʻzlarga modal soʻzlar, undov soʻzlar, koʻmakchilar, bogʻlovchilar va yuklamalar kiradi.

Soʻz va gap, yaʼni soʻz-gap deb yuritilayotgan modal soʻzlar bu yerda ham yordamchi soʻz turkumi qatoriga kiritilgan. Bu oʻz navbatida uzoq davrdan buyon modal soʻzlarning oʻz muhim mavqeiga ega emasligidan dalolat beradi.

Tabiiyki, oʻz soʻz sifatida gap tarkibida ishtirok etganligi sababli gap toʻgʻrisida quyidagilarni koʻrsatamiz:

Gap – maʼlum til qonuniyatlari asosida grammatik va intanatsion jihatdan shakillangan nutqiy birlik. Gap fikrning shakillanishi va ifodalanishi uchun qoʻllaniladigan vosita, voqeilikni va soʻzlovchining unga munosabatini ifodalash uchun ishlatiladigan soʻz va soʻzlar yigʻindisi. Gap fikr bayon qilishning eng soda

shakli. Grammatik – intanatsion va fikriy jihatdan bir butunlikka hamda nisbiy tugallikka egaligi gapning muhim belgilaridandir. Predikativlik va intanatsion tushuncha gapning asosi bo'lib, bu vositalarsiz gap tuzulmaydi. Har qanday gap ma'lum maqsadni ifodalaydi. "Gapning boshqa turi-undov gapni xosil qiladi. Predikativlik gapning real borliq haqidagi xabar bayon qilishni bildiradi. Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turini belgilashda intanatsiyaning o'рни katta. Intanatsiya gapni, nutqni fonetik jihatdan shakllantiradi, Grammatik – fikriy tugallikni, gapning modallik o'ttenkasini ko'rsatadi. Gap fikrni ifodalar ekan, bu fikrning voqeilikka munosabati va shuning bilan bog'lanadi". Gapning hamma turi tasdiq yoki inkor xarakteriga ega bo'ladi.

Yuqoridagilarga e'tibor qaratiladigan bo'lsa, ularga ham boxs talab munozarali masalalarni kuzatishimiz mumkin. Birinchidan, umuman, gapda mohiyatan uch guruhga ajratgan holda, yana boshqa turi, ya'ni undov gaplar ham mavjud deb e'tirof etiladi. Ikkinchidan, gap bo'lishi uchun asosiy vosita predikativlik mavjud deyilgan holda, undov gaplarda predikativlik mavjud bo'lmasligi to'g'risida fikr bildirilmaydi. Modallik to'g'risida fikr yuritilgan holda modal so'zlarning modallik o'ttenkasi to'g'risida fikr bildirilmaydi. Umuman olganda so'z asosiy vazifani bajaradi.

Predmet yoki hodisa kishi ongida aks etadi va tilda ma'lum shakllar bilan ifodalanadi. Kishi ongida aks etgan moddiy borliq, predmet yoki uning hossasi, hodisa yoki voqea tushuncha deb ataladi. Tushunchaning tildagi ifodasi so'zdir.

O'z navbatida so'z jamiyat a'zolari o'rtasida bir xilda tushuniladi yoki umumiy tushunchaga ega bo'ladi.

So'zlarning semantik strukturasini o'rganishda asosan uch metod mavjud. Birinchi metodga ko'ra so'zning semantik strukturasini uning morfemik yasaliishi bilan bog'lanadi. Ikkinchi metod so'zning semantik strukturasini uning sintaktik ishlatilishi bilan bog'liq ravishda tekshiriladi.

Uchunchi metod esa so'zning semantik strukturasini alohida, tilning shu so'zni o'z ichiga olgan leksik-semantik gruppasi doirasiga qaraydi. Bu uch

metodni birlashtiruvchi umumiy xususiyat shuki, soʻzning semantik strukturasiga til leksik sistemasining elementi sifatida qaraladi, bu soʻzning nutqda, konkret situatsiyada ishlatilish tomonini aks ettirmaydi. Shu tufayli, keyingi davr tilshunosligida soʻzning semantik strukturasini til belgisining funksional ishlatilishi bilan bogʻliq holda tadqiq qilinmoqda. Bunda “semantik uchburchak” deb ataluvchi tushunchadan foydalaniladi.

“Semantik uchburchak” soʻz formulalarining yozuvdagi grafemalarining yigʻindisi ekanligi bilan uning signifikat (soʻzda ifodalangan tushuncha) va denotat (soʻz atay oluvchi predmet) sistemasining elementi sifatida qaralganda, soʻzning aloqasi nazarda tutiladi. Soʻz semantikasining nutqda ishlatilishi hisobga olinsa, bir yoʻla fonetik va denotat tomoni oʻrtasidagi aloqaga asoslanadi.

F.de Sassyur taʼlimotida soʻzning ifoda (akustik obrazi) va maʼno jihati koʻrsatilib, maʼno denotati (predmet) oʻrtasidagi aloqa ochilmay qolgan edi.

Tilga belgilar sistemasi sifatida qarash natijasida paydo boʻlgan semantik yoʻnalish birlamchi (soʻz va soʻz birikmalari) va ikkilamchi (faza va gaplar) belgilarini farqlaydi.

Shuni alohida taʼkidlash, lozimki leksema lisoniy birlik boʻlsa, soʻz uning nutqiy voqealanishi, nutqiy birlik. Shuning uchun leksema barcha lisoniy birliklarga xos boʻlgan tayyorlik, umumiylik, majburiylik kabi xossalarga, soʻz esa nutqiy birliklarning tayyor emaslik, individuallik, ixtiyoriylik belgilariga ega.

Leksemaning tayyorligi va soʻzning tayyor emasligini dalillovchi asosiy belgidan biri uning nutqda namoyon boʻlishi uchun har doim tayyor turishi, soʻzlovchi uni faqat ishga solishi talab etiladi.

Koʻrinadiki, leksema maʼlum bir tilda soʻzlovchi ongida shakl va mazmunning yaxlitligi sifatida nutqqa chiqishga shay boʻlib turadi, maʼlum bir qonuniyat asosida, soʻz yasash qolipi asosida nutq jarayonida hosil qilinmaydi. Masalan, oʻzbek tilida soʻzlovchilarning ongida, deylik “ruchka”, “qizil”, “oʻn”, “barmoq” leksemalari borliqdagi biror narsa, predmet, harakat, miqdor, belgi kabini ifodalovchi ongda tushunchaning inʼikosi sifatida maʼnolari bilan tayyor

holda, so'zlovchining "buyrug'i"ni kutgan holda turadi. So'zlovchiga u ajdodlar tomonidan shakiliy va mazmuniy yaxlitlik sifatida "meros qilib qoldirilgan". So'zlovchi uning na shakl, na ma'no tomonini hamma uchun umumiy qilib o'zgartira oladi. Ularni nutq jarayonida boshqa bir ma'noda qo'llashi mumkin. Lekin til jamiyat ongida mazkur shakl bu ma'noni ifodalshga xoslanmaganligi uchun u umumiylik va barqororlik xossasiga ega bo'la oladi. Masalan, so'zlovchi "haykal" leksemasini "asar" ma'nosida qo'llashi mumkun. Mening haykalim bitdi, kabi. Ammo mazkur shaklga "asar" ma'nosi vaqtincha birikib turadi va bu birikish omonat bo'lganligi tufayli yashovchanlik kasb eta olmaydi.

Leksema so'z sifatida voqealanganda, o'zining bir qirrasinigina olib chiqadi.

So'zlovchi nutq jarayonida zarur bo'lgan birlikni o'xshash va farqli belgilari asosida paradigmadan tanlab, sintagmatik imkoniyati doirasida nutqda turli tuman kombinatsiya hosil qiladi. Nutqda leksemaning mohiyati hech qachon to'la-to'kis voqelanmaganligi kabi sintagmatik imkoniyatning ham faqat zaruri voqelikka aylanadi. Zero, dealektika uqtirganidek, mohiyat bir hodisada bus-butun yuzaga chiqmaydi, imkoniyat to'la voqelanmaydi. Nutqiy voqealanish uning bir zarrasi, xolos.

Leksema so'zdan boyroq va kengroq. Biroq so'z nutqda turli "begona" – bevosita leksemaga aloqador bo'lmagan kontekstual hodisalar bilan "boyitilgan", nutqda voqealanish uchun shakillantirilgan bo'ladi. Leksemaning "boy"ligi "o'ziniki"dir. So'z esa, aytilganidek, o'z asosidagi leksemaga tegishli bo'lmagan boshqa nolug'aviy omillar –fonetik, morfologik, sintaktik, uslubiy mohiyatlar hamda nolisoniy xodisa zarralarini biriktirib, o'ziga tegishli bo'lmagan hodisalar hisobiga "boyiydi".

... Leksema va so'zga shunday ta'rif berish mumkun. Leksema, ya'ni so'z – ma'lum bir til jamiyati a'zolari ongida tayyor, umumiy va majburiy, shakl va ma'no birligidan iborat, yaxlitlangan, borliqdagi harakat. Narsa-predmet, belgi, miqdor kabilarni bildiruvchi tushunchalar va munosabatlarni ifodalaydigan, nutqda so'zlarni va grammatik morfemalarni biriktiradigan lisoniy birlik. Leksema va so'z

yasash qoliplarining nutqda reallashgan aniq shakl va ma'noga ega bo'lgan muayan ko'rinishi – so'z.⁷

O'zbek tilshunosligida shu vaqtga qadar to'g'ri va aniq yechimini topmagan, nihoyatda muhim bo'lgan masala – “turkumlik semasi”dir. Bu hodisaning mohiyatini to'g'ri belgilash so'z bilan bog'liq ko'pgina hodisalarning mohiyatini to'g'ri yaratishga yo'l ochadi, imkon beradi. Afsuski, shunday muhim masala o'zbek tilshunosligida shu vaqtga qadar o'z yechimini topganisha yo'q.

... Hozirga qadar o'zbek tilini sistema sifatida o'rganishga bag'ishlangan ishlarda so'zlarning ma'nosi va u bilan bog'liq hodisalarga, jumladan turkumlik semasi va uning mohiyati masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Biroq biron ishda u o'z yechimini aniq va to'g'ri yechimini topganicha yo'q, masala muammoligicha qolmoqda.⁸

Akademik A.Hojiyev lug'at tarkibidagi so'zlarni guruhlariga ajratishda, avvalo “turkum” va “turkumlash”ning o'zaro farqiga e'tibor qaratishni ta'kidlaydi. ... So'zlarni turkumlash haqida gap borar ekan, birinchidan, “turkum”, “turkumlash” tushunchalarining boshqa (o'ziga yaqin) tushunchalardan (hodisalardan) farqini aniq, to'g'ri belgilash talab etiladi. Ikkinchidan so'zlarni turkumlashning mezon, kriteriyasini aniqlash va shu mezon asosida turkumlashni amalgam oshirish kerak bo'ladi. Hozirga qadar ana shu ikki maqsadga erishilmaganligi tufayli turkumlash semasi, so'zlarni turkumlash hodisasi to'g'ri, aniq va talab darajasida hal etilgani yo'q. bu masalada mavjud bo'lgan xatoliklar, bir-biriga zid fikr-mulohazalar va turli chalkashliklarning asosi (sababi) ham ana shunda.

O'zbek tilshunosligida “turkumlik semasi” tushunchasi va atamasi yuzaga kelgunga qadar so'zlar lug'aviy ma'noga ega yoki ega emasligiga ko'ra avvalo mustaqil va yordamchi so'zlarga, o'z navbatida, mustaqil so'zlar “ot”, “sifat”, “fe'l” kabi turkumlarga yordamchi so'zlar “ko'makchi”, “bog'lovchi”, “yuklama”

⁷ Хозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент, 2009. 90-бет.

⁸ Ҳожиёв А. Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари. // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2007. №2 3- бет.

kabi turlarga ajratilar edi. Mustaqil va yordamchi so'zlarga xos xususiyatlarga ega bo'lmagan, ulardan farqlanuvchi so'zlar esa "undov", "taqlidiy so'z", "modal so'z" kabi turlarga ajratiladi. Shu faktning o'ziyoq ko'rsatib turibdiki, turkumlanish mohiyatan bir-biridan butunlay farq qiladigan til turkumlariga tadbiq etilar, ya'ni shunday birliklarning barchasi so'z turkumi bo'lishi tan olinar edi.⁹

Xullas, mavjud manbalarda so'zlarni turkumlarga ajratishda turlicha qarama-qarshi fikrlar bayon etilganini kuzatish mumkun.

Prof. Sh.U.Rahmatullayev so'zlarni lug'at birliklari va grammatik birliklar deb ikki guruhga ajratadi.¹⁰ Albatta bu fikrlarga qo'shilib bo'lmaydi, chunki lug'at boyligini butun holda so'z turkumlari deb nomlash bugungi kun nuqtai nazaridan to'g'ri emas, ikkinchidan grammatik birliklarga kiritilganlar ham so'zdan iboratdir. Shuning uchun lug'at birliklarning turkumlanishi deyish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda so'z turkumlarida leksika va grammatika, lison va nutq, til va borliq munosabatlari nihoyat darajada qorishib ketganligi uchun ularni tasniflash nihoyatda mushkuldir. So'z leksika uchun ham, grammatika uchun ham asosiy va zaruriy birlik hisoblanadi.

Madomiki, so'z turkumlari o'zida u yoki bu belgisiga ko'ra ajratilgan so'z guruhlari ekan, guruhlariga ajratishga doir muammolarni leksika, morfologiya va sintaksis bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar o'zlaricha hal etadi.

O'zbek tilshunosligida asosiy e'tibor so'z turkumlari tasnifiga qaratilib, so'z turkumlarining o'zaro munosabati, ularning kesishuv nuqtalari, yaqinlashuvi va uzoqlashuvi hanuz e'tibordan chetda qolib kelmoqda.

So'z turkumi soni va tarkibini aniqlashda dunyo tilshunosligida bo'lgani kabi, o'zbek tilshunosligida ham, so'zlarning semantik, morfologik va sintaktik xususiyatini inobatga olish keng tarqalgan. Ammo hozirga qadar so'zlarni turkumlarga ajratishda, asosan, ularning semantik xossasiga tayanish urf bo'lgan.

⁹ Ҳоҗиев А. Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари. // «Ўзбек тили ва адабиёти» журналы. -Тошкент, 2007. № 3, 4 - бет.

¹⁰ Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2006, 127-129 betlar.

Ayrim tilshunoslar tomonidan tasnifda mezon sifatida ma'naviy va sintaktik belgi asos qilib olinadi.

Ayrim tilshunoslar ... mantiqiy qarama-qarshilikdan qochish maqsadida formal mantiqning borliq hodisasini tasniflashga qo'yadigan asosiy talabidan biri bo'lgan "tasnifni faqat bir mezon asosida amalga oshirish, tasnifning ikki belgisini bir paytning o'zida qo'llab, ularni qorishtirmaslik" qoidasiga rioya qilish lozim, - deb hisoblaydilar.¹¹

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, so'zlarni hozirgi paytda semantik, morfologik va sintaktik belgisi asosida tasnif qilish odat tusiga aylanmoqda. Tabiiyki ma'lum bir semantikada, ma'lum bir morfologik belgi va sintaktik xususiyat mujassamlashgan bo'ladi.

Agar so'zda semantik, morfologik va sintaktik belgi butunlik tashkil etmasa, ularni atroflicha tasnif etish memkun emas.

Bugungi kun nuqtai nazaridan so'zlarni yuqorida ko'rsatilgan uch manba asosida tasnif etish tasnif etilmoqda.

.... Shuning uchun ayrim manbalarda, darslik va qo'llanmalarda mualliflar so'zlarni uch belgi birligi asosida tasnif qilib, asosan, ulardan biriga yetakchi, asosiy mezon sifatida tayanadi, shu bilan birgalikda, bir tasnifning o'zida tasnif asosini bir necha marta almashtiradi. Deylik, o'zbek tilidagi so'zlar tasnifda morfologik belgi yetakchilik qiladi.

Shu boisdan taqlidlar mustaqil so'zlarning barcha belgilariga ega bo'lsa-da, morfologik o'zgarmas so'z bo'lganligi uchun nomustaqil so'zlar sirasiga kiritib yuborilgan. Takidlash kerakki, uch mezondan hammasi ham so'z guruhlarini belgilashda bir xil mavqeiga ega emas. Bu, avvalo, so'zlarning sintaktik vazifalaridan yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki biror bir sintaktik vazifani bajarish imkoniyati barcha mustaqil so'z turkumida mavjud. Bu vaqtda so'z turkumlarini farqlash uchun emas, aksincha, ularni tenglashtirish uchun hizmat qiladi. Sintaksik

¹¹ Sayfullayev R., Mingliyev B., Boqiyeva S., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent, 2009, 177-bet.

vazifa nuqtai nazaridan mustaqil va yordamchi so'zlar ajraladi, xolos. Ammo bunda ham yordamchi so'z vazifasida qo'llanadigan ot yoki fe'l haqida gap ketganda chalkashliklar vujudga keladi. Nomustaqil so'zlarning ichki tasnifida ularning sintaktik vazifalarini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, muayan sintaktik munosabatni ifodalash ularning mohiyatini, kategoriya ma'nosini tashkil etadi.

Marfologik tasnifda so'zlarning ikki muhim jihati e'tiborga olinadi: so'zlarning shakl yasalishiga potentsial imkoniyat va muayan grammatik kategoriyal ma'no ifodalanishining ma'lum bir so'z guruhlari bilan bog'liq bo'lgan.

Birinchi jihatga ko'ra marfologik o'zgaruvchi va o'zgarmas so'z farqlansa, ikkinchi jihatga ko'ra so'zlarning morfologik guruhlari, so'z turkumlari ajratiladi.

Mustaqillik davriga kelib so'zlar yuqorida ko'rsatilganidek, semantik nuqtai nazardan quyidagicha tasnif etilmoqda.

- a) Mustaqil lug'aviy ma'noli so'z (fe'l, ot, sifat, son, ravish, taqlid);
- b) Nomustaqil lug'aviy ma'noli so'z (olmosh va so'z gap);
- c) Lug'aviy ma'nosiz so'z (ko'makchi, bog'lovchi, yuklama).

Olmosh anglatadigan ma'no u almashtirayotgan so'zning ma'nosi. shu boisdan bu nomustaqil lug'aviy ma'noli so'z sifatida baholanishi lozim. So'z-gap (tasdiq-inkor, taklif, undov va modal so'z) esa hatto bir butun gap vazifasida ham kela oladi. Bu uning lug'aviy ma'nosiz so'zdan farqi, biroq kontekst yordamida lug'aviy ma'no anglatadi. Masalan,

- Uyga bor.
- Mayli. Gapida mayli so'z – gapi boraman so'zi anglatgan lug'aviy ma'noga teng, nutqiy ma'noga ega. Biroq bu ma'no mustaqil emas.

So'zlarning marfologik tasnifi.

Bu tasnifga binoan so'zlar, aytilganidek ikki guruhga ajraladi:

- a) o'zgaruvchi leksema;
- b) o'zgarmas leksema.

O'zgaruvchi leksema lug'aviy shakl hosil qiluvchilarni qabul qila oladi. O'zgarmas so'z esa bunday xususiyatga ega emas. O'zgaruvchi leksemalarga fe'l, ot, sifat, son kiradi.

O'zgarmas leksemalarga esa, taqlid, ravish, ko'makchi, bog'lovchi, yuklama kiritiladi.

O'zgaruvchi turkum uchun tasniflovchi grammatik shakl mavjud. Masalan, otlarda son, sub'ektiv baho formalari, fe'llarda nisbat, o'zgalovchi, harakat tarsi, sifatlarda daraja. O'zgarmas so'z bunday shaklga ega emas.

Ushbu tasnifda olmoshga o'rin berilmagan, chunki u o'zi ishora qiluvchi barcha mustaqil so'z turkumiga xos o'zgarish tizimiga ega. Shuning uchun olmoshning ot-olmosh, fe'l- olmosh, sifat-olmosh, son-olmosh kabi turi mavjud, ot – olmosh sonlashadi (son kategorigasiga ega bo'ladi), fe'l – olmosh nisbatlanadi, tarzlanadi, o'zgalanadi, sifat-olmosh darajalanadi, son – olmosh son shakillarini qabul qiladi.

Leksemalarning sintaktik tasnifi.

Leksemalarning sintaktik tasnifida, asosan ularning nutqda boshqa leksemalar bilan bog'lana olish olmasligi, gap bo'lagi bo'lib kela olish olmaslik xususiyati o'z aksini topadi.

- a) gap bo'lagi bo'lishga xoslanmagan so'z: undov, modal, so'z-gap;
- b) gap bo'lagi bo'lishga xoslangan so'z: fe'l, ot, sifat, son, ravish taqlid, olmosh;
- c) sintaktik aloqa vositasi bo'lishda xoslangan so'z: ko'makchi, bog'lovchi, yuklama.

So'z-gap boshqa so'z bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi; o'zi mustaqil gap bo'lib kelish qobiliyatiga, ya'ni ajralganlik xossasiga ega. Mustaqil va yordamchi so'z sa bog'lanish xususiyatiga ega bo'lib, ulardan yordamchilar gapda alohida bo'lak bo'lib kela olmaydi, balki sintaktik jihatdan bog'lash vazifasini bajaradi. Mustaqil leksema esa mustaqil ravishda gapda gap bo'lagi bo'lib kela oladi.

O'zbek tili leksemalarining semantik, morfologik-sintaktik majmui nihoyat darajada serqirradir.¹²

Tabiiyki, so'z leksika uchun ham grammatika uchun ham asosiy va zaruriy birlik. Madomiki, so'z turkumi o'zida u yoki bu belgisiga ko'ra ajratilgan so'z guruhi ekan, uni ajratishga doir muammoni leksika, morfologiya va sintaksiz bilan shug'ullanuvchi o'zicha xal etadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'zbek tilshunosligida asosiy e'tibor so'z turkumi tasnifiga qaratilib, boshqa bir muhim masala – so'z turkumining o'zaro munosabatini uning kesishuv nuqtasiga yaqinlashuvi va uzoqlashuvi ko'p xollarda nazardan chetda qolib kelmoqda.

“Zamonaviy o'zbek tili, morfologiya”da to'g'ri ta'rif etilishicha so'z turkumlarini guruhlarga ajratishda quyidagi ta'rif berilganini ko'ramiz:

... So'z turkumi son va tarkibini aniqlashda jahon tilshunosligida bo'lgani kabi o'zbek tilshunosligida ham so'zning semantik, morfologik va sintaktik xususiyatni inobatga olish keng tarqalgan....

So'z guruhi aro munosabatning ochilishi u yoki bu belgi asosida so'z turkumining muayan turini ajratishga, tasnifini berishga olib keladi. Shuning uchun mantiqiy qarama-qarshilikdan qochish kerakligini inobatga olgan holda formal mantiqning borliq hodisasini tasniflashga qo'yadigan asosiy talabidan biri bo'lmish “tasnif faqat bir mezon asosida amalga oshirilishi lozim. Inchunin tasnifining ikki belgisini bir paytning o'zida qo'llab, uni qorishtirmaslik kerak”, - degan qoidaga qat'iy rioya qilinishi darkor.

Shunday qilib, so'z semantik, morfologik va sentaktik belgisi asosida tasnif qilinishi maqsadga muvofiq. Bu uch belgi har bir so'zda dialekt birlikni tashkil etadimi degan savol tug'ulishi tabiiy. Boshqacha aytganda, ma'lum bir semantikada ma'lumbir morfologik belgi va semantik xususiyat mujassammi? Masalan, predmetni ifodalovchi so'z ya'ni (predmetlik ma'nosi) son, kelishik, ekalik ma'nosiga, shuningdek, sub'ekt, ob'ekt vazifasida keladi. Shu bilan

¹² Sayfullayev R. va b. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent, 2009, 178-181 betlar

birgalikda atributiv vazifada kelib, predmetning belgisini (tilla uzuk, qum soat), belgining belgisini (tovushdat, tez yovdan xafli) bildiradi.

Agar soʻzda semantik, morfologik va sintaktik belgi butunlikni tashkil etmas ekan, bunda u tasnif asosi boʻlib, hizmat qila olmaydi. Zero, ziddiyatsiz boʻlish faqat bir asosda amalgam oshiriladi. Shuning uchun ayrim manbaada, darslik va qoʻllanmada mualliflar soʻzni uch belgi birligi asosida tasnif qilishi, asosan, undan biriga yetakchi asosiy mezon sifatida tayanishadi, shuningdek, bir tasnifning oʻzida tasnif asosini bir necha marta almashtiradi. Demak, oʻzbek tilidagi soʻz tasnifida morfologik belgi yetakchilik qiladi. Shu boisdan taqlid mustaqil soʻzning barcha belgisiga ega boʻlsada, morfologik oʻzgarmas soʻz boʻlganligi uchun nomustaqil soʻz sirasiga kiritib yuborilgan. Yoki gap boʻlagi sintaktik belgi asosida tasnif etiladi, biroq qoʻshma gap boʻlinishida tasnif (etiladi) sintaktik belgi asosida boshlanib, semantik belgi bilan yakunlanadi.

Shuni alohida taʼkidlash kerakki, qayd qilingan uch mezondan hammasi ham soʻz guruhini belgilashda bir xil mavqeiga ega emas, albatta. Bu, avvalo, soʻzning sintaktik vazifasida yaqqol koʻzga tashlanadi. Chunki biron bir sintaktik vazifani bajarish imkoniyati barcha mustaqil soʻz turkumida mavjud. Bu vazifa soʻz turkumini farqlash uchun emas, aksincha uni tenglashtirish uchun xizmat qiladi. Sintaktik vazifa nuqtai nazaridan mustaqil va yordamchi soʻz ajraladi, xolos. Ammo bunda ham yordamchi soʻz vazifasida qoʻllanadigan ot yoki feʼl haqida gap ketganda, noaniqlik yuzaga keladi. Nomustaqil soʻzning ikki tasnifida uning sintaktik vazifasini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, muayyan sintaktik munosabatni ifodalash uning mohiyatini, kategorial maʼnosini tashkil etadi.¹³

Garchi keyingi yillarda taqlid soʻzlar mustaqillik xususiyatiga ega deb eʼtirof etilsada, uning oʻziga xos morfologik kategoriyasi yoʻq. Biroq oʻzgarmas soʻz ham emas. Taqlidning morfologik kategoriyaga ega boʻlishi gapda uning qanday boʻlak boʻlib kelishi bilan bogʻliq.

¹³ Замоновий ўзбек тили. Морфология. –Тошкент: Мумтоз сўз. 2008, 390-391-бетлар.

Soʻz-gap boshqa soʻz bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi, oʻzi mustaqil gap boʻlib kelish qobiliyatiga ega, yaʼni ajralish xossasiga ega. Mustaqil va yordamchi soʻz esa bogʻlanish xususiyatiga ega, bunda yordamchi gapda alohida boʻlak boʻlib kela olmaydi, balki sintaktik jihatdan bogʻlash vazifasini bajaradi. Mustaqil leksema esa mustaqil ravishda gap boʻlagi boʻlib kela oladi.

“Zamonaviy oʻzbek tili. Margologiya” da lugʻat tarkibidagi soʻzlar semantik, morfologik, sintaktik nuqtai nazardan “yangicha” quyidagi koʻrinishda tartiblanadi:

I. Mustaqil soʻzlar: *feʼl, ot, sifat, son, ravish taqlid, olmosh;*

II. Yordamchi soʻzlar: *koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama.*

III. Oraliq soʻz: *Soʻz-gap.*¹⁴

Ammo shuni alohida takidlash lozimki, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlar va umumtaʼlim maktablar uchun chiqarilgan darsliklarda boshqacha tasnif etilganini yuqorida koʻrdik. Bu degani oʻzbek tilida soʻz turkumlari, turkumlanish, mustaqil, yordamchi, oraliq soʻz turkumlari, soʻz-gaplar hozirga qadar oʻz yechimini topmaganidan dalolat beradi. Bularning barchasini ilmiy asosda tasnif etish mutaxassislar oldida turgan dolzarb muammolardan biri ekanligidan dalolat beradi.

¹⁴ Замоновий ўзбек тили. Морфология. – Тошкент: Мумтоз сўз 2008, 392- бет.

II. bob

So'z-gaplar. Oraliq so'z turkumlari .

Zamonaviy tilshunoslikda so'zlarning turkumlarga ajratilishi semantik-morfologik-sintaktik belgilar asosida olib borilishi to'g'risida yuqorida to'xtalganimiz uchun ularning mustaqillik, yordamchilik, o'zgaruvchan, o'zgarmasliklari to'g'risida fikr yuritmasdan, hozirgi kun nuqtai nazardan leksikalarning ma'naviy belgilari, morfologik, sintaktik belgilarning ajralishining asosiy belgilari to'g'risidagi qarashlarni ko'rib chiqqan holda so'z-gaplarga bo'lgan munosabatimizni bildirishni maqsad qilib oldik.

Xususan, mualliflar tomonidan 2009-yilda nashr etilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili"da ular quyidagicha tavsif etilgan:

... 1. Fe'l ma'naviy belgilari: harakat holatni atash mustaqil leksemalari, morfologik belgilari: nisbatlanuvchi, o'zgalanuvchi, tarzlanuvchi sintaktik belgilari: cheklanmagan gap bo'lagi bo'la oladi;

Ajralishning asosiy belgisi: morfologik va ma'naviy.

2. Ot: ma'naviy belgilari: predmet va predmetlikni atash mustaqil leksemalari;

Morfologik belgilari: sonlashuvchi;

Sintaktik belgilari: cheklanmagan gap bo'lagi bo'lib kela olish;

Ajralishning asosiy belgisi: morfologik va ma'naviy.

3. Sifat: ma'naviy belgilari: belgini atash mustaqil leksemalari;

Morfologik belgilari: darajalanuvchi;

Sintaktik belgilar: cheklanmagan gap bo'lagi bo'lib kela olish;

4. Son: ma'naviy belgilari: miqdorni atash mustaqil leksemalari;

Morfologik belgilari: tartiblanuvchi;

Sintaktik belgilar: cheklanmagan gap bo'lagi bo'lib kela olish;

Ajralishning asosiy belgisi: morfologik va ma'naviy;

5. Ravish: ma'naviy belgilari: o'rin payt, tarz tusni atash mustaqil leksemalari;

Morfologik belgilari: darajalanuvchi;

Sintaktik belgilar: cheklanmagan gap bo'lagi bo'lib kela olish;

Ajralishning asosiy belgisi: morfologik va sintaktik.

6. Taqlid: ma'naviy belgilari: tovush yoki ko'rinishga taqlid mustaqil leksemalari;

Morfologik belgilari: o'zgarmaslik;

Sintaktik belgilar: cheklanmagan gap bo'lagi bo'lib kela olish;

Ajralishning asosiy belgisi: ma'naviy.

7. Olmosh: ma'naviy belgilari: ishora qiluvchi mustaqil leksemalar;

Morfologik belgilari: o'zgaruvchi;

Sintaktik belgilar: cheklanmagan gap bo'lagi bo'lib kela olish;

Ajralishning asosiy belgisi: ma'naviy.

8. Ko'makchi: morfologik belgilari: o'zgarmaslik;

Sintaktik belgilar: so'zni so'zga bog'lovchi, gap bo'lagi vazifasida kela olmaydigan so'zlar;

Ajralishning asosiy belgisi: ma'naviy va sintaktik.

9. Bog'lovchi: morfologik belgilari: o'zgarmaslik;

Sintaktik belgilar: so'zni so'zga bog'lovchi, gap bo'lagi vazifasida kela olmaydigan so'zlar;

Ajralishning asosiy belgisi: sintaktik.

10. Yuklama: morfologik belgilari: o'zgarmaslik;

Sintaktik belgilar: so'zni so'zga bog'lovchi, gap bo'lagi vazifasida kela olmaydigan so'z.

Ushbu darlikda so'z turkumlari orasida o'n birinchi yana yanato'rtta turni so'z-gaplar deb quyidagilar kiritiladi:

1. Modal:

- Munosabatni atash leksemalari;
- O'zgarmaslik;
- Ajraluvchilik (gap bo'laklari bilan munosabatga kirisha olmaslik);
- Ma'naviy va sintaktik.

2. Undov:

- His-hayojonni tasvirlash leksemalari.
- O'zgarmaslik;
- Ajraluvchilik (gap bo'laklari bilan munosabatga kirisha olmaslik);
- Ma'naviy va sintaktik.

3. Tasdiq va inkor so'zlari:

- Tasdiq va inkor ma'noli leksemalar;
- O'zgarmaslik;
- Ajraluvchilik (gap bo'laklari bilan munosabatga kirisha olmaslik);
- Ma'naviy va sintaktik.

4. Taklif so'zlar:

- Taklif ma'noli leksemalar;
- O'zgarmaslik;
- Ajraluvchilik (gap bo'laklari bilan munosabatga kirisha olmaslik);
- Ma'naviy va sintaktik.

Avvalo so'z-gaplarning tamoillari to'g'risida shuni aytish lozimki, garchi o'zbek tilshunosligida so'z-gaplarning mohiyati, turlari, ularning leksik materiali tasnifi, qo'llanish xususiyati empirik asosda yetarlicha bayon qilinganiga qaramasdan, so'z-gaplar qatoriga kirituvchilar hamon turli tuman ravishda o'z ifodasini topmoqda. Biz bular to'g'risida avval to'xtalganimiz uchun ularni qaytarmasdan balki ayrimlarini keltirishni lozim topdik.

... So'zlar dastlab shunday to'dalarga bo'linadi: mustaqil so'zlarning har biri ma'lum bir ma'noni bildirish bilan harakterlanadi. Yordamchi so'zlar yakka holda ma'no bermaydi, ma'nosi nutq ichidagina bilinadi, ular odatda o'z ayrim urg'usiga ega bo'lmaydi; morfologik jihatdan o'zgarmaydi. Ular mustaqil so'zlarning

munosabatini ko'rsatadi, yoki so'z (mustaqil so'z) va gaplarning ma'nosiga bir oz boshqacha tus-ottenka berish uchun xizmat qiladi. Yordamchi so'zlar: ko'makchi, bog'lovchi va yuklama.

So'zlovchining aytayotgan fikrga, voqelikka munosabatini bildiradigan balki, albatta kabi so'zlar modal so'zlar deyiladi.

Undov va memimalar turli emotsiyalarni, taqlidlarni (masalan, tovush taqlidi) va shuning kabilarni bildiradi. Ular o'z xususiyatlariga ko'ra mustaqil so'zlardan ham, yordamchi so'zlardan ham ajraladi. Alohida kategoriyani ayrim to'dani tashkil qiladi.

Modal so'zlar ayrim mustaqil so'zga o'xshab ko'rinsa ham, lekin ularning vazifasi yuklamalarga yaqin keladi: ular so'zlovchining voqelik hodisalariga aytiladigan fikrga munosabatini bildiradi: aniqlik (to'g'ri, u borgan edi), ishonch (shubhasiz, albatta), taxmin.gumon (balki.mazmuni) va boshqalar.

Demak, bular mustaqil so'zlar bilan yordamchi so'zlar orasidagidagi ayrim bir so'z kategoriyasidir. Modal so'zlar formal jihatdan o'zgarmadi va gap bo'lagi bo'lolmaydi .

Undov va mimemalar turli emotsiyalarni , his-tuyg'ularni bildiradigan so'zlar (eh, oh kabi) ,hitob-chaqiriq so'zlari (ey, hoy kabi), hayday uchun ishalatiladigan (beh, beh. Kisht, qurey-qurey) kabi so'zlar ; shuningdek (taq-tuq) kabi taqlid so'zlar. Bu kategoriyadagi so'zlarning taq-tuq tipidan boshqalari undovlar sanaladi, taq-tuq tipi esa mimemalar sanaladi. Mimemalar taqlid bildiradigan so'zlar bo'lib, bular ikki hol; 1) tovushga taqlid (taqir-tuqur kabi), 2) obrazga-holatga taqlid (yalt-yult g'ivir-g'ivir kabi).¹⁵

A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh.Yusupovalar tomonidan nashr etilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida esa so'z-gaplar to'g'risida quyidagi ma'lumotni beradi. ...Mustaqil so'zlarga ham, yordamchi so'zlarga ham kirmaydigan, ularning har ikkisi xos belgini o'zida ma'lum darajada aks ettiradigan oraliqdagi so'zlar

¹⁵ Хозирги замон ўзбек тили. – Тошкент: Фан, 1957. 303-304; 307-бетлар

bor. Bunday so'zlar undov so'zlar, modal so'zlar, taqlid so'zlarni o'z ichiga oladi.¹⁶

Umumta'lim maktablarining 7-sinf uchun darslikda esa so'z-gaplar undovlar, taqlid so'zlar, modal so'zlar, tasdiq va inkor so'zlar mustaqil so'z turkumlariga ham, yordamchi so'z turkumlariga ham kiritilmasdan tasnif etilganini ko'ramiz.¹⁷

Xullas mavjud manbalarda so'z-gaplar, oraliq so'z turkumlari hamon turlicha tamoyillar asosida ta'rif etilmoqda. Yuqorida ta'kidlanganidek keyingi yillarda ular so'z-gap deb e'tirof etilmoqda.

Mavjud har xilliklarga chek qo'yish maqsadida ushbu muammoga boshqacha qaraliyotganini ko'ramiz. ... Substansial yondoshuvda gapning eng kichik qurilish qolipi [Wpm] sifatida qayd etilgach, ziddiyotli, izohtalab nuqtalarga ega bo'lgan so'z-gapga ham "lison-nutq" tamoyili asosida yondashish zaruratin paydo bo'ldi va har bir gapning o'z qolipi mavjud bo'lgani kabi, so'z-gaplarning ham o'ziga xos muayyan bir lisoniy qurilish modeli bo'lishi shartligi e'tirof etiladi.

Til – sof lisoniy qobiliyat va imkoniyat. U tafakkurni shakillantirishga, kodlashtirishga xotirada qat'iy sistemaga tizib saqlashga, axborotni uzatish va qabul qilishga imkoniyat beruvchi muhim lisoniy-ijtimoiy-ruhiy kommunikatsiya vositasi. Tilda bosh ichki ziddiyat-atash-nomunativ va ifodalash-ekspressiv vazifalarning dialektiv birligidir.

Lison – UMIS tabiatli lisoniy birliklarning serqirra, ko'p qavatli sathlaridan tashkil topgan barqaror, tashqi muhit ta'siriga o'ta sezgir, o'zgarish, rivojlanish va moslashish immanent qobilyatni o'z ichida mujassamlashtirgan murakkab qurilishli ierarxik, sistemadir. Lison deyilganda, ma'lum bir jamiyatning barcha a'zolari uchun avvaldan (oldingi avlodlar tomonidan) tayyor holga keltirib qo'yilgan, hamma uchun umumiy va majburiy, fikrni ifodalash va boshqa maqsad

¹⁶ Нурмонов А. ва б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Мофология. – Тошкент: 2001, 164 –бет.

¹⁷ Muhmudov N. va b. ona tili 7- sinf uchun darslik - Toshkent. 96-108-betlar.

uchun xizmat qiladigan birliklar hamda bu birliklarning o'zaro birikish qonuniyatlari yig'indisi tushuniladi.

Me'yor – lisonning ichki qurilish tizimiga nisbatan tashqi omil bo'lib, lisoniy imkoniyat – sinonimik qator, lisoniy birliklarning dublet, ollovariant va variantlari, sohaviy birliklardan har birining voqiyalanish o'rne va xususiyatini belgilaydi.

Nutq – lisonning me'yor egaligidan o'tgan muayyan moddiy yozma, og'zaki, tasviriy, imo-ishora, signal va h.k. shakillarudan birida voqlanishidir.

Demak, lisoniabirlik va birikish qonuniyati farqlashadi.

Har qanday lisoniy birlik psixofizik tabiatli bo'ladi. Shu bilan birgaular ikki tomonining bir butunligidan iborat:

- a) lisoniy birlikning shakliy, tashqi tomoni;
- b) lisoniy birlikning ma'lum bir vazifasi, ma'naviy qiymati. Lisoniy birlik UMIS sifatida mavjud ekan, umoddiylikdanholi bo'lmog'i lozim.¹⁸

UMIS va AHVO munosabati dialektikaning (ya'ni butun borliq – tabiat, jamiyatva inson tafakkurining asosiy yashash) qonuniyatidan biri bo'lganligi sababli, u harbir fanda o'ziga xos tarzda xususiyatlashadi. UMISning tildagi tajallisi lison, AHVOniki esa nutq deb yuritiladi.lison va nutqning majmui til deyiladi.

Tilshunoslikda lisoniy va nutqiy jihatni farqlashga intilish ushbu fan bilan tengdosh. Chunki har qanday fan cheksiz hodisalahni umumlashtirishni o'z oldiga maqsad qilib quyadi. Xususiy hodisalar zamiridagi umumiylikni ko'rishga intilish bilishning har ikkala bosqichi (faxmiy va idrokiy) da ham mavjud. Shu hodisadan aytish mumkinki, bilishning fahmiy bosqichi mutlaq xususiylik bilan o'ralashib qolmaganligi kabi, idrokiy bosqich ham mutlaq umumiylikni UMIS ni tiklay olmaydi. Biroq har bosqich o'z vazifasiga ega. Chunki har bir davr o'z fani oldiga muayyan maqsad va aniq talablarni qo'yadi. Fanlarning taraqqiyoti shu davrning ilg'or falsafiy fikri, davr uchun yetakchi

¹⁸ Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent, 2009, 33-betlar.

bo'lgan fan sohalarinig yutuqlari bilan uzviy bog'liq. Turli fanlarning manbalari ko'p qirrali bo'lganligi sababli, davrning yetakchi falsafiy fikri aniq fanlardan o'rganish manbaining qaysi tomonlariga alohida e'tibor berish lozimligini, borliqdagi mavjud qonuniyatlarni mantiqiy kategoriyalarda qay usulda aks ettirish yo'llarini belgilab beradi:

Shu asosda aytish mumkinki, zamonaviy o'zbek tilshunosligining birinchi bosqichi dialektika nuqtai nazaridan, tildagi UMIS va YAHVOni bir-biridan farqlamay tasnif etish bosqichi. Tilshunoslikda lison va nutqni izchil farqlab o'rganish avvalo, tilshunoslar V.fon Humboldt, B.de Kurtene va F.de Sossyur nomi bilan bog'liq. Lison va nutqning farqlanishi, tilga tizim sifatida yondashuv XX asr jahon tilshunosligida tub burilish sifatida baholanadi. Chunki u mavjud qarashlarni tubdan o'zgartirib yubordi.¹⁹

Insoniyat tarixida fanlar taraqqiyot dialektikasi shuni ko'rsatadiki, har bir fanning taraqqiyoti uzluksiz "empirik" dialektik zanjirdan iboratdir. Bu zanjirning o'zgarish ob'ekti ularni umumlashtirish, ularning mohiyatini ochib berish, fanni ma'lum darajada turg'unlikdan chiqarish uchun emperik tahlilni ochishdir, mana shu zaruriyat fanda inqilobiy vaziyatni yuzaga keltiradi; shunday, avvalo, jonli mushohada, bevosita kuzatish vositasida o'rganilib, uning xususiyatlari, qirralari, tomonlari aniqlanadi, natijada bu xususiyatlar, dalillar, hodisalar to'planadi, saralanadi: to'plangan dalillar asosida aqliy, diolektik tahlil usullariga o'tish ehtiyoji paydo bo'ladi.²⁰

Mana shu nuqtai nazardan ham so'z-gaplarga yangicha qarashlar vujudga kelmoqda.

So'z-gap umumiy atamasi ostida birlashtiriladigan so'zlarning alohida belgilari mavjudki, ular shu belgisi bilan mustaqil, yordamchi so'zdan shuningdek, yohud qo'shma gapdan farq qiladi. Bular quyidagilar:

- 1) mustaqil holda gap bo'la olish;

¹⁹ Sayfullayeva R va b. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent, 2009, 32-b.

²⁰ Неъматов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993, 27-б.

- 2) gap tarkibida shu gapning biror bo'lagi bilan sintaktik aloqaga kirisha olishlik;
- 3) o'ziga xos g'ayri oddiy ma'noga ega bo'lish;
- 4) bog'lamalar bilan birika olmasligi va shuning uchun mayl, zamon, shaxs-son shakillariga ega emaslik.

So'z-gap sirasiga shu to'rt asosiy belgi bilan bir majmuaga birlashuvchi birliklar kiradi (bu tipdagi birliklar kirish so'z vazifasida ham keladi, lekin ularning substansial belgisi – so'z-gap bo'lib kelishi).

1. Mustaqil holda gap bo'la olish belgisi. Bu belgi yuqoridagi belgilar bilan chambarchas bog'langan. O'zbek lisoniy tizimi gapda ma'lum bir axborotni tashuvchi tasdiq-inkor, mayl-zamon, shaxs-son ma'no va munosabatini ifodalovchi tarkibiy qism zarur bo'lishini talab qiladi. So'z-gapda bunday tarkibiyqismni alohida-alohida ajratish mumkun emas. Lekin kesimlik ma'no va munosabatni so'z-gapning o'zida mujassamlashgan va ularning ichki mohiyatini tashkil qiladi. Bunday gaplarda kesimlik kategoriyasi ma'nolari hamda kesimlik gap markazi mavqeida kelishda-fikrni shakillantirish, ifodalash vazifasi bor. Ular gap sifatida voqeilanuvchi so'zning leksik ma'nosida mujassam, shu sababdan bunday gapda kesimlik mavjud, ammo kesimlik shakli ifodalanmagan.

2. So'z-gap mustaqil gap bo'la olish qobiliyatiga ega bo'lganligidan bu so'zga nisbatan semantik funktsional shakillangan so'z-gap atamasi qo'llaniladi. Bu atamadagi "semantik" tarkibiy qismi hodisaning lug'aviy "ma'naviy" tomoniga ishora qilib turadi. Gap markazi mavqeida kelgan bunday leksemaning ikki tabiiy xususiyati nomoyon bo'ladi, ya'ni leksik birlik ham so'z, ham gap. Bu atamaning funktsional tarkibiy qismi esa so'z-gapning sintiktik vazifa bajarishi faqat gap markazi vazifasida kela olishi bilan chegaralanganligini ifodalaydi. Demak, semantik-funktsional shakillangan gap Grammatik shakillangan gap [Wpm] dan farq qiladi va kesimlik ma'nosi so'z-gapda leksik birlikning yoki atov birligi [W] ning o'zida mujassamlashganligi tufayli lisoniy qurulish qolipi [W] sifatida namoyon bo'ladi.

3. Soʻz-gapning oʻziga xos gʻayri oddiy lugʻaviy maʼnoga egaligi. Bu xususiyat quyidagilardan iborat:

- a) maʼno imkoniyati chegaralangan;
- b) grammatik shakilni talab qilmaydi;
- c) boshqa soʻz bilan birikish qobiliyatidan maxrum.
- g) gapda bajara oladigan vazifasi cheklangan.
- d) maʼnoli qismga ajralmaydi.

Shuning uchun ham bu tur leksemalar boshqa leksemalarga nisbatan gʻayrioddiy, biroq maʼno va vazifa jihatdan alohida barqaror til birligi hisoblanadi.

Aytilganlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, ot, sifat, son, olmosh, feʼl, ravish, taqlid soʻz turkumlari gapning istalgan bir boʻlagi vazifasida kela olsa, soʻz-gap vazifasida kela olsa, soʻz-gap vazifasida kela olishga xoslangan, bogʻlovchi, koʻmakchi, yuklama esa sintaktik aloqani ifodalash uchun xizmat qiladi.

Soʻz-gap tasnifi. Soʻz-gap ichida bir necha maʼnaviy guruhga ajratiladi:

- 1. Modal
- 2. Undov
- 3. Tasdiq-inkor
- 4. Taklif-ishora.²¹

- 1. Modal.

Modallar gap shakliga bir butun holda qoʻshilib soʻzlovchining oʻzi anglatayotgan fikrning aniqligiga, chinligiga ishonch darajasini, voqeilikdan taajjublanishini, afsuslanishini ifodalaydi.

Modal soʻzlar gap boʻlaklari bilan odatda grammatik aloqaga kirishmaydi. Shunga koʻramodal soʻzlar asosan koʻrish soʻz vazifasida keladi. Bunday sintaktik vazifa koʻproq fikrning aniqligini koʻrsatuvchi modal soʻzlar guruhiga xosdir. Masalan, “Albatta, mening ota-onam boʻlganida, men ham oʻshalarning yonida

²¹ Sayfullayeva R va b. Hozirgi oʻzbek tili. – Toshkent, 2009, 279-28-betlar.

bo'lishni afzal ko'rardim", dedi o'ziga. (Sh.X. 280. Bundan keyingi barcha misollar Shukur Xolmirzayevning I tom. Saylanma asaridan va O'.Hoshimovning "So'qqa bosh bevoshka" asarlaridan olinadi).

Aksariyat modal so'zlar nutq oqimida pauza bilan ajralib turmaydi, shunga mos holda ular yozuvda ham doimo vergul bilan ajratilavermaydi. Ammo bunday so'zlar ham gap bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaydi, gapda ma'lum modallikni yuklaydi. "O'zi odamlarning tayini yo'q. Bir kun qarasang, yaxshi ko'radi, bir kun qarasang, yomon ko'radi. Fu! Balki yana bitta erga tegay, keyin yana kim yaxshi – Masturaxon yaxshi bo'ladi". (Sh.X. 283).

Darhaqiqat, qo'shnilar va tanish-bilishlarning unga munosabati avvalgidek davom etar. Mastura ularga erkalanar, u yana beihtiyor ravishda hurmat talab va mehr talab bo'lib qolgan edi. (Sh.X. 279).

Modal so'zlarni kirish so'zlardan farqlash kerak. Bu ikki tushuncha o'zaro teng emas: modal so'z morfologik hodisa bo'lsa, kirish so'z sintaktik hodisadir. Kirish so'z vazifasida turlicha turkumlardagi so'zlar kela oladi va ular shodlik, afsus kabi ematsional ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi; fikrning manbaini, ifodalanish tartibini, usulini ko'rsatadi. Modal so'zlar kirish so'z vazifasida qo'llanuvchi so'z tiblariidan biridir, xulas. Demak, har bir kirish so'z modal so'zga teng bo'la bermaydi. Kirish so'z bilan modal so'zlarning o'zaro munosabati butun bilan bo'lak munosabatidekdir.

Modal so'zlar sinonimik kategoriyada bo'lishi ham mumkun: chamasi – chog'i- mazmuni; albatta-shubhasiz-so'zsiz; tabiiy-o'z-o'zidan; aslida – (aslan)-haqiqatda (haqiqatan) –darhaqiqat kabi. Bunday boy sinonimika, so'zsiz, nozim ma'no ottenkalarini ifodalash talabi bilan tug'ulgandir.

Sinonimik modal so'zlar o'zaro ma'no ottenkasidagina emas, balki nutqda qo'llanilishiga ko'ra ham farq qiladi. Masalan, ehtimol-balki-shekilli sinonimlarining qo'llanishida shaklli modal so'zi asosan gapning tugallanishida, balki modal so'zi asosan gapning boshlanishida keladi, ehtimol modal so'zining qo'llanish o'rni erkin, u gapning boshlanishida ham, ichida ham, tugallanishida

ham kela oladi. Bundan tashqari, balki, ehtimol, modal so'zlari dialoglarda javob tariqasida yolg'iz qo'llana olsa, shekilli modal so'zida bunday xususiyat yo'q.

Modal so'zlar badiiy asarlarda odatda persanajlar nutqida ishlatiladi. Chunki modal so'zlar o'z qo'llanishiga ko'ra ko'proq so'zlashuv tiliga xosdir²².

– Voy, Gulya! Bormisan bu dunyoda? Voy, turmushga chiqdigmi?

– Uch oy bo'ldi.

– ...

– Albatta, to'ydan keyin Gavaya orollariga nikox sayliga bordik (O'.H.175).

Dilfuza.Univermagma, universitet. Chol. (Gulsaraga) Univermagda ishlasangiz, kollega ekamiz. Kontrakt tuzamiz. Balki biznes qilamiz. Bugun bayram.(O'.H.177).

– Mayli, ertaga borib olarman,— dedim hamon shubhalanib. Rosdan, shunsha pul qayerdan kelishi mumkin? (O'.H.177).

So'z-gap shaklida qo'llanuvchi modal so'zlarning ma'no turlarida ham ma'lum bir sistema mavjud emas. Biz boshqa tasniflarga qaraganda SH.Rahmatullayev keltirilgan tasnifi ma'lum darajada to'liq bo'lganligi uchun modallarning ma'no turlariga asoslandik.²³

... 1. Fikrning aniqligini ifodalovchi modallar o'z nabatida quydagicha guruhlanadi:

1) fikrning rostligini, realligini ifodalovchilar: darhaqiqat, haqiqatan, haqiqatdan, tilhaqiqata kabi:

Haqiqatan, bu masalani Akobirdan oldin Mastura onasi bilan hal qilgan edi. (SH.X.279).

– O'zimning Mo'minchigim!—dedi erkalanib.

²² Hozirgi zamon o'zbek tili. –Toshkent: Fan, 1957, 487-b.

²³ Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent, 2006, 135-138-betlar.

– Men siz haqiqatan ham hech kimga alishmayman, jonim! Ana, bo'larkan-ku! Mo'mintoyning chehrasi bahor qiyoshdek charaqlab ketdi. (O'.H.145).

2) Fikrning qat'iyligini ifodalovchilar: shubhasiz, so'zsiz, shaksiz kabi: Bu, shubhasiz, bizning yutuq "yuvamiz!" – dedim haydovchiga, -anchadan beri Chaqarning lag'moniga bormay qo'ydik-a?

- Bugun boramiz! Jigar kabobniyam sayratvoradi, azamat! (O'.H. 178).

3) anglatilayotgan voqelikning yuz berishiga ishonch bildiruvchi: albatta.

- Cho'rt poveri! – dedi ozod aka. – Endi "Plishi"ni ko'rsam ko'nglim ayniydigan bo'ladi. Bahodir aka astoydil yalindi.

- Qo'yinglar endi, shu gap shu yerda qolsin, eshitgan quloqqa yaxshima.

- Albatta, deb tasdiqladi Ozod aka. (O'.H. 193).

4. Anglatilayotgan voqeylikning yuzaga kelishi tabiiy ekanini ifodalovchilar: o'z-o'zidan, tabiiy kabi.

... O'z-o'zidan u Tursunoyni hamon sevadi! O'sha g'alati "ko'z boylag'ich" sevgisi bilan sevadi! (Sh.X. 329). Tabiiy Mansurjon ham bujoyni tashlab ketolmasdi. Bu yerda uning ota bobolari o'tgan. (Sh.X.361).

5) Fikrning chinligi, realligini eslatuvchilar: rostdan, darvoqe, aslida, ba'zan: Rostdan bu yolg'on gap! – baqirib yubordi Berdiyor.

- Mana bu shipyonbachchadan chiqqan bu gap. Ho', ko'zingni... (Sh.X.259).

2. Fikrning noaniqligini ifodalovchi modallar o'z navbatida quyidagicha guruhlanadi.

1) fikrning taxminiy ekanini ifodalovchilar: shekilli, chog'i, chamasi kabi.

Jarrohlik jarayonida dotsent falonchilar, assestent fismadonchilar, - deganimda "Informatsiya qiroli"-ning tinglayverib qulog'i, yozaverib qo'li charchab ketdi shekilli, toqati tog' bo'lib so'radi. (O'.H. 51).

2) fikrning gumonligi ekanini ifodalovchilar: ehtimol, balki kabi: Boshqa payt bo'lganda Mastura, ehtimol, bu faryodga chidab turolmasdi. (Sh.X. 221).

3) fikrning tasmoli ekanini ifodalovchilar: xoy-naxoy, aftidan, mazmuni kabi.

... aftidan jiyani direktorini olib kelmoqchi ekan. Bechora bir qo'y so'yib, osh damlab o'tirdi. (Sh.X. 22).

4) fikrning chinligiga gumon ham, ishonch ham ifodalovchilar har qalay, har holda kabi.

To'g'ri, safdoshlarimiz o'ng keldi degancha gurullab o'zini do'konga uradi. Nima zaril! Biz, har holda, intelligentmiz! Pedagogmiz! Unaqa ochko'z emasmiz... (O'.H. 65).

3. Ayrim modallar yuz bergan voqea-hodisadan so'zlovchining taajubini, afsusini ifodalaydi: ajabo, attang,essiz, xayriyat kabi.

Ajabo, shu o'zimizningKenjamizmi? (O'.H. 51).

Men yerga qaradim. – Yo'q. – attang, attang – Nima edi? Deb qoldilar Zokir aka.

Ba'zan bir modal so'z takrorlanib keladi, bunday qo'llanilish ma'noni kuchaytirish uchun xizmat qiladi.

- Yaxshi. Ko'klik qayerda ko'p bo'lsa, o'sha yerga boramiz.
- Mayli. Undov bo'lsa, mayli. (Sh. X. 20).
- Ovul bor, qatiq ichamizmi?
- Albatta, albatta, qatiq. Qatiqdan kim yuz o'giradi? Hademay kun qizib ketadi. (Sh. X. 25).

Ba'zan modal so'z ematsional ma'noni ifodalovchi so'z bilan birlikda qo'llanadi, bunday qo'llanish uchun ham ma'noni kuchaytirish uchun xizmat qiladi.

Gap shundaki, o'zingiz tushinadigan xotinsiz, planimiz katta! Lekin sovxoz o'z moli bilan uzolmaydi. ... To'xtangda! Bizda individualniy plan deganiyam borda. Bu planni tushunasizmi?

- Bo'lmasamchi, albatta, albatta. (Sh.X. 211).

Ba'zan bir gapda birdn ortiq modal so'z qatnashishi mumkun. Bunday hol ko'proq so'zlashuv tilining xususiyatini aks ettiradi.

... Hanifa haqiqatdan ham, aeroport yonida xayrlashayotganida mag'rurlik va o'jarlik xalal berdi, chamasi, mazmunan biror narsa deyishga jazm eta olmadi. (Sh.X. 269).

Modallar asosan boshqa so'z turkumlaridan o'sib chiqqan.

1. Ot leksema shakldan o'sib chiqqan modallarning ko'pchilik qismini shular tashkil qiladi.

Bunda modal:

- 1) Tub leksema shaklga teng deb qaraladi: ehtimol kabi.
- 2) Asli arabcha leksemaning tushum kelishigi shakliga teng bo'lib, o'zbek tili nuqtai nazaridan tub deb qaraladi: haqiqatan (haqiqattan) kabi;

asli prelog va leksemadan iborat bo'lib, o'zbek tili nuqtai nazaridan tub deb qaraladi: darhaqiqat (tojikcha dar predlogi va arab tilidan o'zlashgan haqiqat leksemasidan iborat bo'lib, tojik tilida analitik grammatik shakilli leksema shakl sifatida dar haqiqat tarzida ajratib yoziladi), dar voqe (bu modal ham xuddi shunday tuzilgan: tojikcha dar predlogi + arabcha voqe =darvoqe -haqiqatda) kabi.

4) asli "ot leksema" + atributiv shakl yasovchi" tarkibiga ega leksemashakldan o'sib chiqqan va ma'noli qismlarga ajratilmaydigan bo'lgan: Shubha – siz, shakl-li = shekilli kabi.

5) asli leksema va shakl hosil qiladigan morfemadan tuzilgan bo'lib, modal turkum birligi sifatida o'sib chiqqan, shakl hosil qiladigan morfemalar o'z grammatik mohiyatini yo'qotgan, ajratilmaydigan bo'lak.

2. Otdan boshqa turkum leksema shakllaridan o'sib chiqqan:

- 1) Sifat leksema shakldan o'sib chiqqan: tabiiy kabi;
- 2) Ravish leksema shakldan o'sib chiqqan: albatta kabi;

3) Tojikcha xoh –noxoh fe'l shaklidan o'sib chiqqan: bunda xoh-ista, no-ma = xoh – noxoh – ista – istama, o'zbek tilida har ikki qism oxiradagi h tovushi y tovushiga o'tgan, ya'ni ista – istama → tusmol.

4) Bog'lovchidan o'sib chiqqan: balki.

3. Birikma shakl hokim a'zosining ellipslanishi (tushurilishi) natijasida yuzaga kelgan: o'z-o'zidan.

4. Birikma shaklning modalga aylanishi bilan yuzaga kelgan: har qalay, har holda kabi.

Yuqoridagi bayon etilganlardan kelib chiqib, xulosa qilib aytganda modallik munosabatini bildiruvchi so'z-gaplarda so'zlovchining bayon etilayotgan fikrlarga munosabati – qat'iy ishonch, gumon, tahmin kabi ma'noni ifodalab keladigan so'z – modaldir.

Modal so'z o'z mohiyatiga ko'ra so'z tiplarining alohida bir guruhini tashkil qiladi. Nominativlik modal so'zlarga xos emas. Ular gap bo'lagi bo'lib kelmaydi. Bu tomonlari bilan mustaqil so'z turkumlaridan farq qiladi.

Undov.

Undovlar maxsus turkum sifatida o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa so'zlar guruhlaridan farqlanadi. Ular leksik jihatdan nominativlikni ko'rsatmaydigan so'zlar guruhida bo'lsa, grammatik jihatdan o'zgarmaydigan so'zlar qatoriga kiradi.

Undovlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular faqat umumiy gap mazmuni bilan ma'lum darajada bog'lanib, ba'zan u asosiy gapning ekvivalenti, ba'zan esa shu gapning umumiy sifatida qo'llanadi. Ular gap sastavida kelganda shu gapdan ifodalangan umumiy ma'noga so'zlovchining munosabatini bildiradi, unga emotsional bo'yoq beradi.

Undovlarning yana eng muhim xususiyatlaridan biri ularning undov gap sifatida, ya'ni so'z-gap sifatida qo'llanishidir.

Ular yolg'iz ishlatilganda turli xil his – tuyg'u, buyruq-xitob, rasm-odatlarni bildiruvchi so'z-gaplar sanaladi. Ammo yolg'iz undov orqali ifodalangan gap mazmuni eshituvchi uchun ham, so'zlovchi uchun ham noma'lum bo'ladi. Undov gaplar strukturasiga ko'ra birgina yoki bir necha undovlardan tashkil topgan bo'lishi mumkin. Hatto ba'zan birgina tovushdan tashkil topgan undovlar ham gap

bo'lib kela oladi. Undov gaplar alohida gap sifatida ham, qo'shimcha gap sostavida ham boshqa gaplar bilan mazmunan aloqador bo'ladi. Ba'zan undovlar otlashish xarakteriga ega bo'ladi.

Undovlar anglatgan ma'nolariga ko'ra ikki katta guruhga bo'linadi: ematsional undovlar, imperativ undovlar. Bulardan tashqari, bu ikki guruhga ham kiritish mumkin bo'lmagan va alohida guruhni tashkil qiluvchi undovlar ham bor. Bundan tashqari bir undovturli o'rinda turli xil his-tuyg'u bildirishi ham mumkun.²⁴

Undovlar mustaqil ma'noli so'zlar bilan yordamchi so'zlar orasidagi bir kategoriya bo'lib, ular leksik ma'no grammatik ma'no bilan diolektik birlikni tashkil qiladi. Undov nutqda ko'pincha modal ma'noni ifodalash uchun xizmat qiladi.²⁵

Undovlar og'zaki so'zlashuv, badiiy, qisman publisistik uslubda keng qo'llanilib, rasmiy va ilmiy uslubda keng qo'llanish doirasi cheklangan. Nutq jarayonida so'zlashuvchilarning yoshi, amali nuqtai nazaridan undovlardan foydalanish ham ma'lum darajada farq qiladi. Xususan, o'zidan katta yoshdagilarga murojaat qilganda yoki ma'lum lavozimni egallagan shaxslarga uning qo'l ostida ishlayotgan shaxslarga uning qo'l ostida ishlayotgan shaxslar xoy deb murojaat etmaydi yoki balli undovi kattalar tomonidan kichiklarning qilgan yoki qilayotgan ishlaridan mamnunligini ifodalash, ular mehnatini baholash maqsadida ishlatiladi, lekin kichiklar tomonidan kattalarning ishlariga nisbatan bunday undov orqali baho berilmaydi.

Prof.Sh.Raxmatullayev so'z-gaplar deb yuritilayotgan ayrim so'z turkumlariga boshqacha yondoshganligini ko'ramiz. ...Adabiyotlarda modal so'zlar, undovlar, taqlid so'zlari mustaqil turkumlarga ham, yordamchi so'zlarga ham kiritilmay, alohida-alohida tur turkum deb qoraladi.

²⁴ Ўзбек тили грамматикаси. I том. –Тошкент: Фан, 1975, 592- бет

²⁵ Ҳозирги замон ўзбек тили. – Тошкент: Фан, 1957, 510-бет

Bulardan taqlid so'zlari "tasvir birliklari turkumi" nomi bilan leksik birlik turkumlari qatoriga kiritib tasvirlandi.

Modal birliklar va undovlarni grammatik birlik turkumlari bo'lgani uchun bog'lovchi va yuklama turkumlari qatoriga kiritib tasvirlaydi. Ushbu to'rt turkum uchun umumiy belgi deb ularning grammatik ma'no ifodalashi va birikmaning, gap shaklining bo'lagi vazifasida kelmasligi ta'kidlanadi. Bu turkumlarning har biri o'ziga xos belgilari bilan farqlanadi.²⁶

Ushbu fikr to'g'risida fikr yuritiladigan bo'lsa, birinchidan so'zlarni morfologik jihatdan grammatik birliklar turkumini va ikkinchidan so'z-gaplarni yordamchi so'z turkumlari qatoriga kiritilishi maqsadga muvofiq emas deb hisoblaymiz.

O'z navbatida prof.Sh.Rahmatullayev undovlar to'g'risida ham boshqacha yo'l tutganligini ko'ramiz.

... Undov deb avvalo kishining his-hayojonini bevosita ifodalaydigan tovush birliklariga aytiladi: oh, eh, uh, uf, e, be, voy, a, o, ye, he, hah, ehho, ohho, voydod kabi.

1. Undov bilan qanday his-hayajon ifodalayotgani ko'pincha aniq bo'lmaydi; undovdan keyin (ba'zan oldin) keladigan jumlaning mazmuni undov qanday his-hayojonni ifodalashni, qanday ohangda talaffuz qilishini ko'rsatib turadi.

Ba'zi undovlar aniq bir his-hayajonni ifodalanishga hoslangan bo'ladi. Masalan, be-undovi rozi bo'lmaslik, qo'shilmaslik kabi his-hayajonni iya undovi "ataylanish" kabi his-hayajonni ifodalaydi. Tinglovchining diqqatini tortish uchun ishlatiladigan hoy undovi ham aniq bir ma'noni ifodalaydi.

Ko'pchilik undovlar esa har xil ohang bilan aytilib, turli his-hayajonlarni ifodalashga xizmat qiladi.

2. Adabiyotlarda undovlarning ikkinchi ma'no turi deb xitob birliklariga aytiladi. Bular his-hayojon birliklaridan keskin farq qiladi: biror harakatni qilish-

²⁶ Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent: 2006, 129-130- betlar

qilmaslikka ko'rsatma beradi. Shunga ko'ra ikkiga guruhlanadi: a) harakatni bajarishga chaquruvchi undovlar; b) harakatni bajarmaslikka chaqiruvchi undovlar.²⁷

“Hozirgi zamon o'zbek tili”da undovlarning ma'nolari yetarli darajada o'z ifodasini topganligini uchratamiz.

His-hayajon undovlari: eh (ex), ox, oh, uh, hm (him, em), be, xo, he, e, ey, ha, uf, fu, tuf, dod, voy, hoh, obbo, ura, o'ho', o'hho', oho, (ohho), eha, (ehha), ie va shu kabilar.

Ular quyidagi ma'nolarni anglatadi.

1) Sevinch, mamnunlikni anglatadi.

- Eh, biram chiroyli! (O'.H. 37).

2) Qayg'u, hafalikni anglatadi.

- E, yo'qol! –dedim alam bilan...

- Ie, tushib qopti! dedim boshyalangligim endi esimga kelgandek sochimni changallab. (O'.H. 17).

3) Qo'rqinchni anglatadi.

- Ie, menda oltin nima qiladi (61).

4) Bezovtalanishni anglatadi.

- Hoh, qurub ketkur! – Menda fayf xondrit dollor, - dedim beshta barmog'imni ko'rsatib.

5) Taajubni anglatadi.

- Ie, ayajon, siz Hamidaxonning ayalari bo'lasizmi? (O'.H. 12).

- Ie, assalomu alaykum, kuyov to'ra!..

- Ie, tanimadilar shekilli kuyov? – dedi u ranjib. – Qishloqqa borganlarida hamsuhbat bo'lgandik. Karta o'ynagandik. Pisra (O'.H. 77).

O'z navbatida ma, tiss, marsh, bos va sh.k. so'zlovchining eshituvchi shaxsga nisbatan buyrug'ini, istak-hohishini ifodalaydi.

²⁷ Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent: 2006,. 138-bet.

Rasm-odat undovlari kishilarning uchrashishi, ayrilishi vaqtida so'zlovchining eshituvchiga nisbatan bo'lgan munosabatlarini ham ifodalaydi. Bular o'z navbatida boshqa so'z turkumlaridan undovga ko'chgan undovlardir. Ularga hormang, bor bo'ling, esonmisiz-omonmisiz, xayr, marhamat, salom kabilarni ko'rsatish mumkun.

- Marhamat oling! ...
- Bo'lmasam xayr, men daryo bo'yiga pristangga ketdim! (Sh.X.267).

Yuqoridagi ushbu so'zlar nutqda o'zlarini taalluqli bo'lgan so'z turkumlariga xos semantik va sentaktik xususiyatlariga ko'ra ham ishlatiladi. Undov vazifasida qo'llanganda o'zlarining o'sha xususiyatlarini yo'qotadilar.

Nutq jarayonida barakalla, ofarin, balli, rahmat, tashakkur so'zlar ham undov vazifasida qo'llanadi.

- Ofarin, bor bo'ling!
- Uzur, bekam! – dedi Toshpo'lat yerga qarab.

Biror ish harakatni bajartirish maqsadida ishlatiladigan buyruq- hitob undovlari ma'nolariga ko'ra guruhlarga ajratiladi.

- A) chaqirish undovlari: kuch-kuch, goh, mosh-mosh, pish-pish, beh-beh, tu-tu, ti-ti, xov-xov va shu kabi.
- B) Xaydash undovlari: xayt, pish, kish, kish-kish, chuv, chu, chuk, xix va shu kabi.
- C) Xayvonlarni harakatdan to'xtatish yoki tinchitish maqsadida ishlatiladigan buyruq-xitob undovlari ham bor: dirr, tok, xo'o'sh, ho'o'q, ish va shu kabi.

Undovlar o'ziga xos sintaktik xususiyatlarga egadir. Ular bir tarkibdan iborat bo'lgan ayrim gap sifatida buyruq, istak, xis-hayajon kabi tuyg'ularni ifodalaydi. Bunday gap ega va kesimga bo'linmaydi.

Undov maxsus grammatik shakillarsiz ohang yordami bilangina gap yoki gap bo'laklaridan biri bilan bog'lanadi, birgapda va uning ma'nosini kuchaytiruvchi vazifani bajaradi.

Takroriy emotsional undovlar, buyruq-hitob undovlari, urf odat va tabrik undovlaridan boshqa hamma undovlar ana shu vazifani bajaradi.

- E, xalqqa nima ta'sir qilar edi!
- Dedi G'olib. – turibdida, eski qabr...
- E, qarshimisiz, G'olibboy?! Menga maslahat berish o'rniga bu qabrning yonini olasizmi?
- Kim biladi, balki bu bir shayxning mozoridir? Balki bir eshonning, mo'llaning qabridir? Bo'lishi mumkunmi? Juda mumkunda! Shunaqa!
- He, qo'ysangizchi, men qayerdan bilay (Sh.X.94).

Undovlar otlashib ega, aniqllovchi, to'ldiruvchi, kesim vazifalarida qo'llanadi.

Taqlid so'zlar.

Tabiatda insondan tashqari juda ko'plab tirik jonzodlar yashaydi. Ularda ham o'ziga xos nutq aparati mavjud. Manashu nutq aparati yordamida ular turli tuman ovoz chiqaradi. Masalan, itlarning vovullashi, mushuklarning miyovlashi, tovuqning qoqoqlashi, qo'y-echkinining marashi, otning kishnashi, eshakning hangirashi hech birimizga yod emas.

Bundan tashqari tevarak atrofimizda beadat voqia va hodisalar sodir bo'lib turadi: narsalar bir biriga tegadi, uruladi. Natijada har xil ovozlar xosil bo'ladi. Inson o'z faoliyati davomida mana shu ovozlarga taqlid so'zlar atamasi bilan yuritiladi.

Prof. Sh.Rahmatullayev taqlid so'zlarni undovlarning bir turi deb ularni ikki guruhga ajratadi.

1. Harakatni bajarishga chaqiruvchi undovlar: chu, tis, hih, mok-mok, tu-tu-tu!
2. Harakatni bajarmaslikka chaqiruvchi undovlar: digg, tok, ish, ho'sh, hish.

O'z navbatida taqlidiy so'zlar semantik jihatdan, bir tomondan tovushga taqlidni, ikkinchi tomondan harakatga taqlidni yoki miqdor obrazni bildiradi.

Bobom quruq aravani tortishga ham modori qolmagan eshagini “hih-hih”lab yo’lga tushdi. Chiqib ketayotganda chol kampir pichir-pichir qila²⁸yotganini sezdim. Bobomning “a?” degani qulog’imga chalindi.

- Pish-e! oyog’imga suykalgan mushukni bir tepgan edim, “big’” etib uch qadamcha nariga borib tushdi.
- Oyim dik etib o’rnidan turdi.
- Voy-voy-voy sodda mug’ombirey!
- Ikki qo’llab ushlab ko’zlarimga tikildi. Cholimni aytishicha- tabib sigirini ham sizlab gapirarkan “chu” demay, “chuying” derkan.
- Shoshma, qora ko’z, shoshma ... dirr! Ho’p!! ana bo’ldi. Ketdik.
- Chu, birodar. (O’.H. ikki eshik orasi).

Yuqorida takidlanganidek, ular 2 xil guruhga ajratiladi. 1. Tovushga taqlid so’zlar. 2. Obrazga taqlid so’zlar.

1. Tovushga taqlid so’zlar kishilar, jonivorlar, narsa va hodisalarning chiqargan tovushlariga shartli ravishda taqlid qilish natijasida paydo bo’ladi: qars, tars-tars, tuk-tuk, qars-qurs, kirt-kirt, shilp-shilp kabi ularning bir qismi jonli (inson, hayvon va boshqa janvorlar), ikkinchisi esa jonsiz predmetlarning tovushlariga taqlid natijasida paydo bo’lgandir.

a) jonli predmetlar tovushlarga taqlid so’zlar: a) kishilarning harakatlaridan paydo bo’lgan tovushlarga taqlid so’zlar: -qah-qah etib kuldi. Kallang ishlaydimi, uka! To’chni adresga balo bormi? (O’.H. 126).

b) turli xayvon va janvorlar tovushiga taqlid so’zlar. Shunda xalqning yonginasiga boshi katta eshak tikan uchiga qanotlari qizil, ko’ksi sariq tog’ bulbuli kelib qo’ndi va “chu-chu! Chu-lu-lu!!!” deb sayradi...

Xoliq bo’ynini cho’zib, yana uni sayrashini eshitdida:

- Chu-lu-lu-lu! – dedi beihtiyor (Sh.X. 219).

2. Tovushga taqlid so’zlar eshitish bilan bog’liq bu hodisalarni ifodalasa, obrazga taqlid so’zlar ko’rish bilan bog’langan xodisalarni ifodalaydi.

²⁸ Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o’zbek tili. – Toshkent: 2006, 135-138-bet.

Predmetlarning holat, harakat, tashqi ko'rinishining hamda yorug'liq ta'sirining obrazi ifodasi sifatida maydonga kelib, tilda keng qo'llanuvchi lip-lip, yalt-yalt, pildir-pildir, hang-mang tipdagi so'zlar obrazga taqlid so'zlar hisoblanadi.

Turmushda harakat va holat formalari qanchalik ko'p bo'lsa, til ham ularni ifodalovchi so'zlarga shuncha boydir.

Obrazga taqlid so'zlar semantikasidagi har xilliklar ham o'z navbatida bir qancha guruhlariga ajraladi.

a) harakatni, uni harakteristikasini bildiruvchi obrazli so'zlar. Bu so'zlar ko'proq kishilarning, narsa va jonivorlarning yurishi va boshqa xil harakatlaridagi turli holatlarning obrazli ifodalanishi sifatida maydonga keladi: lip-lip, lop, liking-likang, ship-ship, qilpang-qilpang, salang-salang, jildir-jildir, lapang-lapang, g'ovur-g'uvur, dik-dik, lik-lik, xilp-xilp kabilar.

Kaklik lip etib kattakon bo'taning tagiga kirib ketdi. (Sh.X.222).

Hanifaning lablari uchdi, kipriklari pir-pir qilar, ko'zlaridan duv-duv yosh to'kildi.

b) kishi va boshqa predmetlarning holatini, tashqi ko'rinishining tasvirini ifodalovchi so'zga taqlid so'zlar. Bular, asosan, narsalarning tinchlik muvozanat holatini tasvirlaydi.

- Ha-a-a-y, ginekolog-bor, indokrinolog bor... Ukajon bilishimizcha, siz xatga ko'p tikilasiz, to'g'rimi?

Zuxra jiq-jiq terlab, qizarib, pishib o'tirgan holda dong qotib turardi (Sh.X.8).

v) Yorug'liq tasvirini ifodalovchi taqlid so'zlar. Bu guruhga obrazli so'zlarning asosiy qismi to'satdan bo'lganlikni, keskinlikni, bir lahzalikni bildiradi.

Bundan tashqari obrazga taqlid so'zlarning yuqoridagi guruhlari kishi va boshqa narsalarning harakat va holatini ifodalasa, bu guruppa yorug'lik obrazini ifodalovchi so'zlar sifatida maydonga keladi:

U tiniq ko'kda suzayotgan to'lin oyga, jivir-jivir nuqra yulduzlarga, qor bosib yotgan cho'qqiga, pastga, soy bo'yidagi qorong'i olchazorlarga tikildi. (Sh.X.192).

Tovushga taqlid so'zlar tabiatda uchraydigan turli tovushlarga taqlidni ifodalaydi. Insonning turli holati va kayfiyati tufayli sodir bo'ladigan tovushga taqlid so'zlar: xax-xax/xa-xo-xa/ hi-hi-hi kulguga taqlid, xax-xax-xa... qattiq kuldi. Ali (O'.H. 37).

pix-pix- og'ir nafas olgandagi tovushga taqlid.

kasir-kasir –kasir-kasir ovqat chaynagandagi tovush.

qult-qult-suv (ummon suyuqlik) ichgandagi tovishga taqlid.

bidir-bidir-tez gapirgandagi tovushga taqlid .

duk-duk-po'k-po'k-yurak urushiga taqlid (qo'rqqanda, hursandchilikda).

Hayvon va qush, hashoratlar chiqargan tovishga taqlid so'zlar.

vov - it xurishiga taqlid;

uv - it yoki bo'ri ulishiga taqlid;

irr - it yoki bo'ri irillashiga taqlid;

mo'/mu – sigir ma'rashiga taqlid;

maa-baa – qo'y ma'rashiga taqlid;

miyov-miyov – mushukning miyovlashiga taqlid;

vaq-vaq – vuqir-vuqir – qurbaqaning vaqillashiga taqlid;

vish-vish – ilonning vishillashiga taqlid;

quq-ququr-qu – xo'rozning qichqirishiga taqlid;

g'a-g'a-g'a-g'aq-g'aq –o'rdak va g'ozning g'aqillashiga taqlid;

qag'-qag' – qarg'aning qag'illashiga taqlid;

pit-pildiq – bedananing sayrashiga taqlid;

parr- qush uchgandagi parillashiga taqlid;

viz-viz-g'uv-g'uv – qo'ng'iz, ari va shu kabi hashoratlarning uchish tovushiga taqlid;

g'uv-g'uv uchar bolari.²⁹

Mavjud darslikik va ilmiy adabiyotlarda ma'naviy guruhga ega bo'lgan tasdiq-inkor so'zlar, odatda, modal so'zlar tarkibida tahlil etilmoqda. Jumladan, ha, mayli, xo'sh, xo'p so'zlari tasdiqni

- Ha, ikkoviyam bog'chaga boradi.
 - Mayli, domlajon, siz nima desangiz shuda.
 - Ha, yo'q ... Qo'yavering ... -domlam yarim yo'lga to'xtadi. (O'.H. 38).
- Yo'q, mutlaqo, also, sira so'zlari inkorni ifodalovchi so'zlardir.
- Yo'g'e... -dedim bo'shashib. Bir-ikki osham yeb ko'rdim. Yo'q nozanindan osh! (O'.H. 36).
 - Also, hafa bo'lish yo'q. So'rayvering!
 - Yo'q. Mana, Tashqi ishlar vazirligining ma'lumotnomasi! Bunisi Elchixonadan olingan spravkalar. (O'.H. 80-126 betlar).

Taklif – ishora so'zlarga qo'llanishi tana a'zolarining maxsus harakati bilan uzviy bog'liq bo'lgan ma, mang, qani, marhamat so'zlarini kiritish mumkun. Ular tinglovchiga qaratilgan, uni biror ish-harakatni bajarishga undaydi.

- Qani, Shoniyozboy, o'tiring oshna!
- Buyuring! Ichkiliksiz buyuring!
- Marhamat, siz nima desangiz shuda. (Sh.X. 212).
 - Ma, ol!
 - E, qo'y, olmayman!
 - Yo'q, desang, aloqalarimiz buzilib ketadi-da.
 - Nima qilasan? (Sh.X.247).

Shuni alohida takidlash lozimki, so'z-gaplarning juda ko'pchiligi boshqa so'z turkumidan tarixiy taraqqiyot jarayonida o'ziga xos nutqiy qo'llanish natijasida shakillangan va rivojlangan.

Yuqorida ta'kidlaganidek, nutq jarayonida ayrim mustaqil so'zlar matnda modalsimon shunday qilib, baxtga qarshi, tovba, xudo saqlasin, undovsimonlarga

²⁹ Шоабдурахмонов Ш. ва б. Кўрсатилган манба. 442 бет.

erkalash ma'noli asalim, oppog'im, toychog'im va undalma ma'noli ey, do'stlar kabi; tasdiq inkorsimonlarga boshlang ko'rinishli so'zlar misol.

Qisqasi, so'z-gaplarning leksik-semantik turi bo'lgan sof so'z-gap o'zi tarixan kelib chiqadigan so'z turkumidan batomom uzulgan ko'pchiligi ravish, sifat, ot sifatida mutlaqo qo'llanmaydi. So'z-gaplashgan unsur esa o'zlari tarixan kelib chiqqan so'z bilan omonimik munosabat hosil qiladi va boshqa turkumdan aloqasini to'la uzmagani bo'ladi. So'z-gaplashayotgan unsurlarga o'zi boshqa so'zlar turkumi (ravish, sifat, olmosh, son, fe'l) ga tegishli, leksik so'z-gaplarga xos ma'no va vazifada qo'llanila oladigan birliklar kerida va buning so'z-gapsimonlardan farqi shundaki, ushbu qatlamga oid so'z tarixiy taraqqiyot natijasida batomom so'z-geplarga o'tib ketishi mumkin. So'z-gapsimonlar esa o'z turkumi doirasida qoladi.

So'z-gaplarning sintaktik xususiyati yuqorida ta'kidlaganidek, ularning kesimlik qo'shimchasini qabul qilmasligi bog'lam bilan birika olmasligida. So'z-gaplar ham undalma, sodda gap kabi kengaygan yoyiq holda bo'la olishidir. Har bir so'z-gap shu gapga xos bo'lgan ma'noni ifodalashga xoslangan bo'ladi. Chunonchi xa so'zi tasdiqni ifodalaydi. Uning bo'lishsiz formasi³⁰ xa emas, balki alohida so'z "yo'q"dir.

Albatta yoki shubhasiz modal so'zi qat'iy ichonch va tasdiqni ifodalaydi, inkor ma'nosi mutlaqo, also so'z-gapi bilan beriladi.

So'z-gaplarda zamon va shaxs ma'noasini nol ko'rsatkichli bo'lib, matnda muayanlashadi. O'zbek tilida gap zamon va shaxs ma'nosidan xoli bo'la olmaydi. Zero, so'z-gaplarda zamon va shaxs son ma'nosining kontekstual aniqlanish xususiyati bu so'zlarning asosiy sintaktik xususiyati-kesimlik qo'shimchasini qabul qilmay gap bo'lib kela olishi bilan shakillanadi.

So'z-gaplarning yana bir sintaktik xususiyatlari – gap tarkibida alohida pozitsiyada turishi, ya'ni boshqa gap bo'lagi bilan bog'lanmasligi va o'zi gap sifatida "yashay olishi", hamisha lisoniy alohidalikni saqlab qolishi. Chunonchi,

³⁰ Замонавий ўзбек тили. Марфология. 449 - бет.

- Ertaga kelasizmi? – albatta.
- Engil tortingizmi qizim?
- Shukur.

So'z-gaplarning umumiy sintaktik xususiyati ular kesimlik qo'shimchasini qabul qilmagan holda gap va uning markazini tuza olishda.

Modal, undov, tasdiq-inkor, taklif-ishora kesimlik kategoriyasini tashkil etuvchi ma'nodan har biri alohida bo'rtirilgan, "yalong'och" holda yuzaga chiqadi: modallar so'zlovchining munosabatini, maylini; taklif va ishoralar shaxsga qaratilganlik ma'nosini, tasdiq va inkorlar, tasdiq-inkorlar, undovlar bo'lg'usi harakatni ifodalashga hizmat qiladi.

XULOSA

Barchaga ayonki, XX asr tilshunoslik fani uchun muhim burilish davri bo'ldi. Tilga tizim sifatida yondoshildi, til va nutq xodisasi farqlandi.

Zamonaviy tilshunoslik nuqtai nazardan leksema hozirgi kunga kelib ma'noviy, sintaktik va morfologik nuqtai nazardan tasnif etila boshlandi.

Manashu asosda ishora, undov va taqlidlar sof ma'noviy asosda; ot, sifat, son, fe'llar sof morfologik asosda; bog'lovchi, ko'makchi, undov va modallar sintaktik asosda ajratiladi.

So'z-gaplar ya'ni oraliq so'z turkumlarining o'ziga xos xususiyatlari mavjud:

- Mustaqil holda gap bo'la olish; gap tarkibida ushbu gapning biror bo'lagi bilan sintaktik aloqaga kirisha olmasligi;
- O'ziga xos g'ayritabiiy ma'noga ega bo'lish;
- Bog'lama bilan ham birika olmasligi.

So'z-gaplar mustaqil gap bo'la olganligi uchun ularni semantik, funktsional so'z-gap deyishga asos bo'la oladi.

- So'z-gaplar mustaqil gap bo'la olganligi uchun, ularni semantik funktsional so'z-gap deyishga asos bo'la oladi.
- So'z-gaplarning ma'no imkoniyati chegaralangan.
- So'z-gaplar grammatik shaklni talab qilmaydi.
- So'z-gaplar boshqa so'zlar bilan birika olmasligi bilan farqlanadi.
- So'z-gaplar ma'noli qismlarga ajrala olmaydi.

Ma'noviy xususiyatga ega bo'lganligi uchun mutlaqo, also, sira, yo'q, mayli, xo'sh, xo'p so'zlarini garchi modallik xususiyati ularda aks etsa ham ularni tasdiq inkor so'zlari sifatida so'z-gap deyishga asos bor, deb hisoblaymiz. Shular bilan bir qatorda taklif ishora bildiruvchi ma, mang, qani, marhamat kabi so'zlar muloqot jarayonida qo'llanilgani uchun ular ham so'zsiz so'z-gaplar qatorida o'rganiladi.

Albatta, vaxolangki, valohialam, mutlaqo, also kabi sof so'z-gaplar bilan bir qator undovlashayotgan, modalashayotgan, inkorlashayotgan so'zlar mavjudki (to'ppa- to'g'ri, balki to'g'risi, bahtga qarshi, huddi shunday, boshlang, attang) ular nutq jarayonida o'zlarining asl ma'nosidan uzoqlashgan bo'ladi.

Zero so'z-gaplarning deyarli barchasi tarixiy taraqqiyot jarayonida mustaqil so'z turkumlaridan o'sib chiqqanligidir.

So'z-gaplarning gap tarkibida alohida o'rin egallashi, ya'ni o'zi gap sifatida yashay olishi hamisha lisoniy alohidalikni saqlab qolishi yuqorida ko'rsatilganlarning isbotidir.

So'zlarni turkumlarga ajratishda hozirga qadar ularning lug'aviy ma'nosi asos qilib olinganligi sababli, so'z-gaplar lug'aviy ma'no anglatmaslik nuqtai nazardan turlicha talqin etganligiga chek qo'yish zarurdir. So'zlarni turkumlarga ajratishda ularni semantik, morfologik va sentaktik xususiyatiga ko'ra tasnif etish zarur deb hisoblaymiz. Bizningcha so'zlar semantik nuqtai nazardan quyidagilarga ajratilmog'i zarur.

- a) mustaqil ma'no anglatuvchi so'zlar: fe'l, ot, sifat, son, ravish;
- b) nomustaqil lug'aviy ma'no anglatuvchi so'zlar: olmosh;
- c) lug'aviy ma'no anglatmaydigan so'zlar: ko'makchi, bog'lovchi, yuklama.

Agarda leksemaning sintaktik tasnif nuqtai nazardan yondashiladigan bo'lsa uning nutqda boshqa leksema bilan bog'lana olish olmasligi, gap bo'lagi bo'lib kela olishi-kela olmasligi inobatga olinishi zarur deb hisoblaymiz. Mana shu nuqtai nazardan gap bo'lagi bo'lishiga xoslanmagan so'z-gaplar guruhiga kiritilib ular: modal so'z, undov so'z va taqlid so'zlardir. O'z navbatida so'z-gap boshqa so'z bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi. O'zi mustaqil gap bo'lib kelish qobiliyatiga ya'ni ajralish xususiyatiga ega. Bir so'z bilan aytganda, akademik A.Hojiyev to'g'ri etirof etganidek hozirga qadar o'zbek tilshunosligida rus tilshunosligi asosida so'zni turlarga ajratish davom etayotgan bir paytda so'zlarni turkumlarga ajratishda qator chalkashliklar mavjuddir. Yuqorilardan kelib chiqib biz so'z-gaplar guruhini tashkil etuvchi taqlid so'zlarni, undovlarni va modal so'zlarni

oraliq so'z turkumlari deb qaralayotgan fikrga qo'shilamiz. Zero, ular so'z-gap deb hisoblanadigan bo'lsa, u morfologiyaning emas balki sintaksisning ob'ekti bo'lib, qoladi. Vaholangki morfologiyaning tekshirish ob'ekti so'z bo'ladigan bo'lsa lug'at tarkibidagi so'zlar biz hohlaymizmi yo'qmi ma'lum bir turkumga kiritilishi shart.

So'z-gaplarni tashkil etuvchi modallar so'zlovchining munosabatini, taklif-ishoralar shaxsga qaratilganlik ma'noni, tasdiq-inkorlar, tasdiq-inkorni, undovlar bo'lg'usi harakatni ifodalash uchun hizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каримов И.А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пайдевори. // Баркамол авлод орзуси. – Тошкент: ЎЗМЕ, 1999.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998.
3. Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. – Тошкент: Шарқ, 1999.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. – Toshkent.: Manaviyat, 2008.
5. Маҳмудов Н., Нурмонов А., Собиров А., Набиева Д. Она тили. 6-синф учун дарслик. – Тошкент: Тасвир, 2009.
6. Маҳмудов Н., Нурмонов А., Собиров А., Набиева Д., Мирзааҳмедов Т. Она тили. Умумтаълим мактабларнинг 7-синфи учун дарслик. – Тошкент: Маънавият, 2009.
7. Қодиров М., Неъматов Н., Абдурахмонова М., Сайфуллаева Р. Она тили. Умумтаълим мактабларнинг 8-синфи учун дарслик. – Тошкент: Чўлпон номидаги нашриёт, - матбаа ижодий уйи, 2010.
8. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. – Тошкент: Университет, 2006.
9. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva S., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2009.
10. Бобоколомова Р. Ўзбек тилида семантик –функционал шакилланган сўз-гаплар ф.ф.н. дисс.автореф. – Тошкент: 2000.
11. Замонавий ўзбек тили. Морфология. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2008.
12. Зикриллаев Ғ. Истиқлол ва адабий тил. – Тошкент: Фан, 2004.
13. Исхаков Ф. лексико – грамматическая класификация слоф или частирече в тюркискех языка. Москва: 1956.

14. Исоқов З.С. Сўзларни туркумларга ажратишнинг мантикий асослари // Ўзбек тили ва адабиёти. 2003. № 6.
15. Лутфуллаева Д. Ўзбек тилининг айрим морфонаграмматик воситалари // Ўзбек тили ва адабиёти. 2010. № 3.
16. Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.
17. Миртожиев М. Ёрдамчи сўзлар валентлиги // Ўзбек тили ва адабиёти. 2010. № 3.
18. Муродуллаева О. Ўзбек тилида олмошларнинг мўътадиллашуви // Ўзбек тили ва адабиёти. 2010. № 3.
19. Негматов Е. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент, 1985.
20. Неъматов С., Бозоров О. Тил ва нутқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993.
21. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш, Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2001.
22. Нурмонов А., Саримсоқов Б. Тил системасида сўзнинг ўрни ва сўзларнинг туркумларига ажрашиш муаммолари // Ўзбек тили ва адабиёти. 1999. № 5.
23. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
24. Фозилов Е. Ўзбек тилининг тарихий морфологияси. – Тошкент. Фан, 1965.
25. Шоабдурахмонов Ш., Аскарова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент. Ўқитувчи, 1980.
26. Елтазаров Ж.Д. Сўз туркумларининг ўзаро алоқаси ва кўчиши. Д.Д.А. – Тошкент. 2006.
27. Ўзбек тили грамматикаси. I том. – Тошкент. Фан, 1975.

28. Гуломов А., Абдуллаев И., Маърунов З. Ўзбек тили дарлиги. 5-6-синфлар учун. – Тошкент: Ўқитувчи, 1988.

29. Ҳожиёв А. Ўзбек тилшунослигининг долзарб масаллари // Ўзбек тили ва адабиёти. 2007. № 4. 2009. № 5.

30. Ҳозирги замон ўзбек тили. – Тошкент: Фан, 1957.